

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“GEOGRAFIYA O`QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

MUXAMMEDOVA NAZOKAT JO`RAEVNA

«MARKAZIY OSIYO GEOGRAFIYASI FANIDAN»

MA'RUZA MATNI



Navoiy 2015

Mazkur ma`ruza matni Markaziy Osiyo geografiyasi dasturi asosida tayyorlangan bo`lib, unda Markaziy Osiyoning tabiiy geografik sharoiti, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, fauna va floras, aholisi va mehnat resurslari, xo`jaligi hamda Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston davlatlari geografik o`rni, aholisi, mehnat resursi, xo`jaligi transporti va tashqi iqtisodiy aloqalarini noan`anaviy usullarda yoritib berilgan.

Ma`ruza matni pedagogika oily o`quv yurtlarining talabalariga mo`ljallangan.

Tuzuvchi: N.J.Muxammedova Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrası o`qituvchisi.

Taqrizchi: B.H.Kalonov Geografiya va uni o`qitish metodikasi kafedrası dotsenti.

A.S.To`rayev NDKI Konchilik fakulteti Kon elektronika kafedrası dotsenti.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga keng qamrovli islohotlar chuqur kirib bormoqda. Bu islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish mazmunini yaxshilash, pirovard natijada uni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy rivojlanishiga xizmat qildirishdan iboratdir.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 26-moddasida ta'limni ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga joriy etilsin,- deyilgan bo'lsa, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim berishning ilg'or texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va ta'lim jarayonini didaktik jixatdan ta'minlash talab etiladi.

“Markaziy Osiyo geografiyasi” o'quv kursi pedagogika o'quv yurtlaridagi tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik bilimlar majmuasining eng muhim fanlaridan biridir. Bu fanni o'rganish orqali bo'lajak o'qituvchilar o'zi yashab turgan o'lkaning tabiiy-geografik sharoitini, iqtisodiy-ijtimoiy holatini, so'nggi yillarda vujudga kelayotgan xilma-xil geoeologik muammolarni, tabiiy va mehnat resurslarini hamda xududda ro'y berayotgan salbiy tabiiy geografik jarayonlarni va ularni oldini olish haqidagi hozirgi zamon bilimlariga ega bo'ladi.

“Markaziy Osiyo geografiyasi” kursi uch qismdan iborat. Birinchi qismida ma'ruzalar bo'lib, o'lkaning geografik o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari, tekshirilish tarixini, iqlimi, ichki suvlari, aholisi, xo'jaligi va Markaziy Osiyo davlatlari haqida innovatsion texnologiyada yoritilgan.

Ikkinchi qismida esa seminar mashg'ulotlari bo'lib, unda mustaqil ishlash uchun topshiriqlar berilgan. Oxirgi qismi mustaqil ish mavzularining yangi pedagogik texnologiyada yoritilishi va ishlash tartibi bilan izohlanadi.

“Markaziy Osiyo geografiyasi” fanining oliy o'quv dargoxlarida o'qitilishi bu xududda yashovchi o'zbek, qozoq, turkman, tojik, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarining qadimiy milliy qadriyatlarini hurmat qilishga, o'tmishdagi ajdodlarimizdan hozirga qadar saqlanib kelinayotgan eng aziz bo'lgan Ona Vatan tuyg'usini mustaqillik sharofati bilan qayta tiklashga, diniy, madaniy birligimizni yanada yuqori bosqichlarga olib chiqishimizga yordam berishi muqarrardir.

“Markaziy Osiyo geografiyasi” fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyaning ahamiyati shundaki berilgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar hamda dunyoqarash g'oyalarini jamlagan holda o'quvchilarga o'rgatishdir. Ko'nikma - mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir. Bu iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Ma'ruza matni NavDPI “Geografiya va uni o'qitish metodikasi” kafedrası o'qituvchisi Muxammedova Nazokat Jurayevna tomonidan tayyorlandi.

1-mavzu: Kirish. Markaziy Osiyoning tabiiy geografik sharoiti iqlimi, ichki suvlari

Reja

- 1) O`rta Osiyo tushunchasi, geografik o`rni va tekshirish tarixi.
- 2) O`rta Osiyoning tabiiy geografik sharoiti va rel`efi.
- 3) Iqlimi va ichki suvlari.

Tayanch iboralar: *Geografik o`rin, rel'yef, iqlim, dengiz, tabiiy sharoit, tabiiy resurs, daryo, zilzila, tekislik, tog`lik, geosiyosiy o`rin, ko`l, botqoq, muzlik, O`rta Osiyo*

**Geografik o`rni va chegaralari.** Markaziy Osiyo davlatlari tabiiy-geografik jixatdan Yevrosiyo materigining deyarli O`rta Osiyo o`lkasida joylashgan. Bu davlatlar materikning o`rtasida joylashganligi bilan bir qatorda dunyo okeanlaridan uzoqda, ya`ni berk havzadadir. Bundan Qozog`iston Respublikasining shimoliy qismi mustasno. Tabiiy-geografik o`rning o`ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu davlatlar Osiyo qit`asidagi musulmon davlatlarining eng shimoliysi hisoblanadi. Qolgan musulmon davlatlari Osiyo qit`asining janubi-g`arbida, janubida, janubi-sharqida va Afrika materigining shimolida joylashgandir. Shu bilan bir qatorda bu davlatlar boshqa musulmon davlatlaridan o`zining tabiiy-geografik sharoiti va aholisining milliy urf-odatlari bilan tubdan farq qiladi.



Markaziy Osiyoning chegaralari Qozog`iston davlatining shimoliy chegaralari orqali, sharqiy chegarasi esa Qozog`iston, Qirg`iziston va Tojikistonning sharqiy chegaralari orqali, janubiy chegarasi Tojikiston, O`zbekiston va Turkmaniston davlatlarining janubiy chegaralari orqali o`tkaziladi. G`arbiy chegarasi esa Turkmaniston va Qozog`istonning Kaspiy dengizidan o`tgan g`arbiy chegaralari bo`ylab o`tadi. Ana shu chegarada Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy maydoni 3,99 mln. kv.km. Bu chegaralardan tashqari davlatlararo chegarani bilish talabalarda iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishida muxim ahamiyatga ega. Qozog`iston Respublikasi o`z navbatida shimoli-

g'arbiy, shimoliy, shimoli-sharqiy qismlarida Rossiya davlati bilan, sharqida Xitoy bilan, janubida O'zbekiston, Qirg'iziston bilan, g'arbda Kaspiy bilan chegaralanadi.

O'zbekiston esa shimolda va g'arbda Qozog'iston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, janubi-sharqda Tojikiston bilan, janubda Afg'oniston bilan, janubi-g'arbda Turkmaniston bilan chegaralanadi.

Turkmaniston shimolda Qozog'iston bilan, shimoli-sharqda, sharqda O'zbekiston bilan, janubi-sharqda Afg'oniston bilan, janubda Eron bilan, g'arbda Kaspiy dengizi bilan chegaralanadi.

Qirg'iziston shimolda Qozog'iston bilan, sharqda Xitoy bilan, janubda, janubi-g'arbda Tojikiston bilan, g'arbda O'zbekiston bilan chegaralanadi.

Tojikiston shimolda Qirg'iziston bilan, sharqda Xitoy bilan, shimolda va sharqda O'zbekiston bilan, janubda Afg'oniston bilan chegaralanadi.

Tekshirilish tarixi. Markaziy Osiyo tabiatini o'rganish juda qadim davrlardan boshlangan. Sabab Markaziy Osiyo G'arb (Yevropa) va Sharq (Osiyo) davlatlari orasidagi muxim xalqaro savdo yo'lida joylashgan. Qadimda Markaziy Osiyoda juda yirik davlatlar barpo etilgan. Miloddan avvalgi VII-V asrlarda Zarafshon vodiysida So'g'diyona, Amudaryoning o'rta oqimida Baqtriya, quyi oqimida Xorazm va Murg'ob vodiysida Marg'iyona davlatlari bo'lgan. Bu davlatlar haqida zardo'shtiylarning muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto" da bayon qilingan. Mashhur yunon olimi Gerodotning "Tarix" asarida Movarounnahr haqida ba'zi bir ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda Strabon, Arrian, Ptolomey va boshqalarning asarlarida geografik va tarixiy ma'lumotlarni uchratish mumkin. O'rta Osiyo tabiati "Buyuk ipak yo'li" davrida xitoy, arab va mahalliy olimlar tomonidan yaxshi o'rganildi. Ipak yo'li miloddan avvalgi II asrdan milodning XVI asrigacha asosiy savdo yo'li bo'lib hisoblangan. Bu davrda Markaziy Osiyo tabiati mahalliy hamda arab, xitoy sayyox olimlari tomonidan o'rganildi. Xitoy sayyoxi Chjan-Tsyan 13 yil davomida (miloddan avvalgi 138-126 yillar) Issiqko'l atrofi, Farg'ona va Xorazm tabiatini, aholisi va uning urf-odatlarini va xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgandi. Milodning VI asrida Syuan-Tszyan 16 yil davomida (629-645 yillar) Tyanshan, Yettisuv, Chuv vodiysi, Toshkent, Samarqand va Pomir tabiatini o'rganib, muxim geografik asar yozib qoldirgan. Ayniqsa uning Issiqko'l haqidagi tabiiy-geografik ma'lumotlari diqqatga sazovordir.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo tabiati arab va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Arab sayyoxlari va olimlari tomonidan Markaziy Osiyo tabiati va uning tabiiy-geografik o'lkalari haqida juda ko'p geografik ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Abul Xasan al Ma'sudiy (X asr) Turkiston va Kavkaz geografiyasi haqida asar yozgan, Abu Ishoq Istarxiy (X asr) "Iqlimlar kitobi", Yoqut ibn Abdulla (XII-XIII asrlar) "Mamlakatlarning alifbo tartibida ro'yxati" ("Mu'jmaul buldon") nomli asar yozgan. Ibn Battuta esa o'zining geografiyagv oid kitobida Ustyurt, Xorazm, Qizilqum, Buxoro, Samarqand va Xitoy haqida ba'zi bir geografik ma'lumotlarni beradi.

Markaziy Osiyo tabiatini o'rganishda shu erlik mahalliy olimlar ham juda katta xissa qo'shganlar. Muxammad ibn Muso Xorazmiy (VII asr) Markaziy Osiyo geografiyasiga asos solgan, uning mashhur asari bo'lmish "Yer tasviri" 1878 yildayoq rus tiliga tarjima qilingan. Olimning bu asari "Xorazm geografiyasi"

nomini olib, unda Yer zaminidagi 537 ta nuqtaning,shu jumladan, 200 dan ortiq tog`larning ta`rifi har tomonlama yoritilgan.Markaziy Osiyo tabiati,geologik tuzilishi,foydali qazilmalari, xo`jaligi, tarixi haqida buyuk olim Abu Rayxon Beruniy (X- XI asrlar) juda qimmatli geografik ma`lumotlar yozib qoldirgan. Ayniqasa uning “Hindiston”,“Geodeziya”,“Mineralogiya” asarlari hanuzgacha o`z ilmiy ahamiyatini yo`qotgani yo`q.Dunyoda birinchi globusni 995 yili yasagan.Bu globusda meridian va parallallar ham berilgan.

Markaziy Osiyoda “Geografiya” fanining rivojiga juda katta xissa qo`shgan mahalliy olimlarimizdan yana biri bu Zahiriddin Muxammad Boburdir (XV-XVI asrlar).U o`zining mashhur asari bo`lgan “Boburnoma”da Farg`ona,Zarafshon vodiylari,Toshkent voxasi,Turkiston,Zarafshon, Oloy, Hisor tog` tizmalari va boshqalar haqida boy ma`lumotlar beradi. Bobur birinchilar qatorida geografiyada taqqoslash usulini qo`llab, Samarqand va Qobul tabiatini taqqoslaydi.

O`rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan so`ng uning tabiati, xo`jaligi rus va o`zbek olimlari tomonidan atroflicha o`rganildi. Bu davrda o`lka tabiatini o`rganishga P.P.Semyonov- Tyanshanskiy, I.V.Muketov, V.A.Obruchev, L.S.Berg, X.M.Abdullaev, SH.S.Zokirov, T.Zohidov, H.Hasanov, Z.Akromov, L.Babushkin, N.A.Kogay va boshqalar katta hissa qo`shgan.


Markaziy Osiyo yer yuzasining hozirgi ko`rinishi uzoq davom etgan geologik davrlar mobaynida Yerning ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) kuchlarining o`zaro ta`siri natijasida vujudgan kelgan.

Geografik qobiqning hozirgi holatini tushunib olish, uning ayrim qismlarining kelib chiqishini tushunib olish uchun Yerning geologik tarixini bilishimiz kerak. Yer po`stining hosil bo`lishi va o`zgarib, hozirgi holatiga kelguniga qadar ketgan vaqt geologik vaqt deyiladi.

Geologik sana eralarga (arxey, proterozoy, paleozoy, kaynozoy) va davrlarga bo`linadi. Har bir era va davrda Yer yuzasining relyefi, quruqlik va suv egallagan maydonlarning o`lchami, iqlimi, o`simlik va hayvonot olami o`ziga xos xususiyatga ega bo`lgan.

Geologik tuzilishi. O`rta Osiyo hududi turli davrlarda va sharoitlarda hosil bo`lgan xilma – xil tog` jinslaridan iborat bo`lib, erning tarixi 5 ta eraga bo`linadi: arxey, proterazoy, mezozoy, kaynazoy. Mazkur eralarga 5 ta tog` hosil bo`lish sodir bo`lgan. Baykal yoki Rifey (Proterazoy erasida), Kaledon (Poleazoy erasining birinchi yarmida), Gertsin (Poleazoy erasining ikkinchi yarmida), Kamberiy va Paramiy (Mezazoy erasida), Alp (Kaynazoy erasida).

Arxey va Proterozoy eralarida O`rta Osiyo hududi dengiz ostida bo`lgan va cho`kindi jinslar to`plana boshlagan. Poleazoy erasidan



boshlab O`rta Osiyo hududini qoplab yotgan Tetis dengizi ichida katta kichik orollar ko`rinishidagi quruqliklar hosil bo`la boshlagan. Poleozoy erasining birinchi yarmida sodir bo`lgan koledon tog` hosil bo`lish bosqichida Qozog`iston past tog`larining g`arbiy qismi va Shimoliy Tyanshan tog`lariko`tarilgan qolgan joylar dengiz ostida bo`lgan, ayrim joylarda vulqon otilib turgan. Natijada cho`kindi va vulkanik tog` jinslari hosil bo`lgan.

Poleozoy erasining ikkinchi yarmida gertsin tog` hosil bo`lish bosqichi sodir bo`lgan. Natijada quruqlik maydoni torayib chekina boshlagan. Bu bosqichda Tyanshan tog`ining qolgan qismi, Qozog`iston tog`ining sharqiy qismi, Markaziy Qizilqumdagi past tog`lar ko`tarilgan. So`ngra ko`tarilgan tog`lar yemirila boshlagan va Poleozoy erasining oxiri va mezozoygacha aylanib kelgan.

Mezozoy erasida burmalanish kuchsiz bo`lgan. Kimberiy burmalanishi natijasida asosan Kasbiy bo`yidagi past tog`lar va balandliklar ko`tarilgan. Bular Mang`ishloq yarim orolidagi tog`lar platosi va katta Bolxon tog`lari. Bu davr mobaynida tog` oraliqlarida va botiqlarda ko`llar botqoqliklar va sayoz dengiz qo`ltiqlari hosil bo`lgan. Mezazoy erasining o`rtalarida iqlim nam va issiq bo`lgan, xilma – xil o`simliklar o`sgan. Ularning qoldiqlaridan toshko`mir va qo`ng`ir ko`mir hosil bo`lgan. Mezazoy erasining oxirida iqlim juda quruq bo`lgan, natijada o`rmonlar yo`qolib ketgan. Kaynazoy erasining paleogen davrida dengiz yana bostirib keladi, tog`lar emiril pasayib qoladi. Neogen davrida sodir bo`lgan Alp burmalanish natijasida Orqaoloy, Pomir, Kapetdog` ko`tarilgan. Tyan-Shan tog`i yana qaytadan ko`tarilib yashargan. Janubida baland tog`larning hosil bo`lishi natijasida balandlik mintaqalari vujudga keldi. Alp o`tloqlari shakllanadi, tog` muzliklari rivojlana boshlaydi. To`rtlamchi davr mobaynida O`rta Osiyo davlatlari tabiati hozirgi holatining shakllanishi boshlangan. Hind okeani ta`sirining kamayishi va Tetis okeanining tamoman chekinishi natijasida iqlim quruqlashib cho`llar hosil bo`lgan, hozirgi daryo vodiylari shakllangan.

Zilzilalar. O`rta Osiyoda tez-tez er qimirlashlar sodir bo`lib turadi. Buning asosiy sababi Pomir vaTyan-Shan tog`larining ikkita litosfera plitalari: Yevrosiyo va Hindiston – Avstraliya plitalarining to`qnashgan chegaralarida joylashganligi va bu tog`larning to`xtovsiz ko`tarilayotganligidir. Shuning uchun zilzilalar Pomir va Tyan-Shan tog`larihamda ularning atrofida ko`proq sodir bo`lib turadi. Kuchsiz zilzilalar juda katta moddiy va ma`naviy zarar keltiradi. Falokatli zilzilalar kuzatilgan joylar:

- 1930 yilda Dushanbe atrofida
- 1946 yil Qozonjida
- 1948 yilda Ashxobodda
- 1966 yilda Toshkentda
- 1976 yilda Gazlida
- 1992 yilda To`xtag`ulda

RelEFI. O`rta Osiyo rel`yefining tuzilishi judu xilma – xil, bu o`lkada katta tekislik va pastekisliklar, katta – katta plato va qirlar qator tizilib ketgan adirlar va doimiy qor va muzliklar bilan qoplanib yotgan baland tog`lar bor. Umumiy maydonning 2/3 tekislik va pastekislik, qolgani esa qir va tog`lar egallagan. Eng

baland nuqtasi Hindiqush tog'ida Tirichmir – 7690 m. eng past nuqtasi Qoragiyo botig'i – 132 m.

O'rta Osiyoning eng katta tekislik va pastekisliklarga: Kaspiy bo'yi sohili, Qoraqum, Qizilqum, Mo'yinqum, Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Farg'ona vodiysi, Zarafshon, Surxon – Sherobod, Qashqadaryo, Murg'ob – Tajan vodiylari, Xorazm, Balxashbo'yi qum tekisligi, Betpaqdala va Ustyurt platolari. Bu tekisliklar okean sathidan o'rtacha balandligi 100-150 m. Qizilqum erlari 250 m. Qoraqum erlarida 100 m. Quyi Amudaryo va Orolning janubiy sohillari 55-60 m. ga teng.

O'rta Osiyo hududidagi tog'lar sistemasiga Savr, Torbog'atoy, Jung'oriya Olatovi, Tyanshan, Oltoy – Hisor, Pomir, Turkman – Xuroson tog' tizmalari kiradi. Tog'larning balandligi sharqdan – g'arbga balandligi o'zgarib boradi.


Iqlimi. O'rta Osiyoning iqlimi quyidagi omillar ta'sirida vujudga keladi: georafik joylanish va quyosh radiatsiyasi, havo massalarining harakati, rel'ef. O'lkamiz Yevrosiyo materigining markazida joylashgan, bu esa quyoshdan kelayotgan issiqlik miqdorini katta miqdorida bo'lishini ta'minlaydi. Quyoshning yer yuzaga tushadigan nur energiyasi va issiqligi quyosh radiatsiyasi deb ataladi.


O'rta Osiyo shimoldan janub tomon katta masofaga cho'zilganligi munosabati bilan uning shimoli va janubida quyosh radiatsiyasi turlicha. Masalan, 22 iyunda o'lkaning shimoliy qismida tush paytida quyoshning ufqdan balandligi 60° , janubida esa 79° ni tashkil qiladi. Qoraqum cho'lining janubida 1 sm.kv. yuzaga 150 k/kal issiqlik keladi. O'lka iqlimini vujudga kelishida arktika, mo'tadil va tropik havo massalari muhim o'rin turadi. O'rta Osiyo hududida uchun eng sovuq yanvar, eng issiq iyul oylari hisoblanadi. O'rta Osiyo Hududi uchun eng sovuq yanvar, eng issiq iyul oylari hisoblanadi.

Qishda: arktika va sovuq qutbiy havo massalarining kirib kelishi natijasida hududning shimoliy va markaziy qismi sovib ketadi. Eng past harorat o'lkaning shimoliy qismida - $50-55^{\circ}$ ga, markaziy qismida $-30 -40^{\circ}$, janubiy qismida $-16 -20^{\circ}$ ga pasayadi. Yoz oylarida iyulning o'rtacha harorati Termiz va Sherobodda $31-32^{\circ}$ ga, Qizilqumda $44-46^{\circ}$ tuproq va qum $75-80^{\circ}$ gacha qizdiriladi. O'rta Osiyo hududida yog'ingarchilik tekislikdan balandlikka qarab o'zgarib boradi, tekisliklarda 70-200 mm, tog'li rayonlarda 1500-2000mm. atrofida kuzatiladi.

Ichki suvlari. O'rta Osiyo hududida er usti va osti suvlari juda ham notekis taqsimlangan. Bu er usti suvlariga daryolar, ko'llar, botqoqlar va muzlar kiradi.

To'yinish manbalariga qarab Markaziy Osiyo daryolari 4 guruhga bo'linadi:





Muzlik va qor suvlaridan to'yinadigan daryolar (Amudaryo, Zarafshon, So'x, Isfayramsoy, Chuv, Ili, Lepsa, Qqsuv, Xo'jabaqirgan). Bu daryolar Tyanshan, Oloy, Pomir tog' tizmalaridagi muzlik va doimiy qorlardan suv oladi, ularning suvi ayni yozda ko'payadi. Qor va muzlarning erishidan to'yinadigan daryolar (Sirdaryo, Surxondaryo, Chirchiq, Qoradaryo). Bu daryolarning suvi

asosan iyun, iyul oylarida ko'payadi.

Doimiy va mavsumiy qorlarning erishidan to'yinadigan daryolar (Ohangaron, Qashqadaryo). Bu daryolarning suv oladigan manbalari past tog'larda bo'lganidan sersuv emas, ularning suvi bahorda ko'payib, ba'zan toshadi, yozda esa suvi kamayib, sayozlanib qoladi.

Mavsumiy qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar (Murg'ob, Tajan, Atrek, G'uzordaryo, Sherobodaryo, Sarisuv, Nura, To'rg'ay daryolari, Farg'ona vodiysi va Nurota tog'lari etagidagi adirlarda oquvchi daryolar, soylar).

Yer osti suvlaridan to'yinadigan daryo va soylar tog' etaklarida, adirlarda ko'p uchraydi. Ular Farg'ona, Norin, Issiqko'l vodiylari, Turkiston, Nurota, Zarafshon tog' etaklarida ko'p.

Amudaryo - Markaziy Osiyoning eng mersuv daryosi. U Pomir tog'laridan oqib tushuvchi Panj va Vaxsh daryolarining quyilishidan hosil bo'ladi. Uzunligi 2540 km, suv to'plash havzasining maydoni 320000 kv.km. Amudaryo avvaliga chap tomondan Afg'onistondan oqib keluvchi Qunduzdaryoni, o'ng sohildan esa Kofirnixon va Surxondaryoni qo'shib oladi. Xuddi ana shu o'ng sohilda unga SHerobod daryosining suvi ham qo'shiladi. Daryoning bu qismi eng ulkan va sersuvdir. SHu erdan to quyilish joyi – Orol dengizigacha qadar (salkam 1500 km masofada) tekislikda, ya'ni Qoraqum va Qizilqum cho'llari orasida keng o'zanda oqib o'tib, boshqa xech yerda unga irmoqlar qo'shilmaydi, balki aksincha, uning suvi juda ko'p miqdorda sug'orishga, bug'lanishga sarf bo'lib, erga shimilib kamayib qoladi. Ayniqsa, sug'orishga ishlatiladigan suv miqdori 1961 yildan boshlab kengaya bordi. Natijada yildan-yilga Amudaryoning Orol dengiziga quyadigan suv miqdori kamayib boradi. Hozirda u Orol dengiziga juda oz miqdorda suv quyadi.

Amudaryoning tekisliklarda oqadigan qismi qirg'oqlarini ko'p yuvadi va ba'zi erlarda daryo o'zanining kengligi 1500 metrga etadi. Yumshoq jinslarni yuvib kelishi natijasida uning suvi juda loyqa. Ana shu loyqa daryoning quyi oqimlarida – Xorazm voxasi va Qoraqalpog'istonda juda qalin yotqiziqlarni hosil qilgan. Bu hududda ko'p tarqalgan qumli tuproqlar uchun loyqa haqiqiy mineral o'g'it vazifasini o'taydi.

Amudaryo Orol dengiziga quyadigan joyida juda katta delta hosil bo'lgan. Amudaryo deltasi dunyodagi eng katta deltalardan biri hisoblanadi, uning maydoni 11 ming km² dan ortiq, ya'ni Volga daryosi deltasidan kattadir. Hozirgi paytda bu delta Orol dengizi suvining pasayishi natijasida qurib qoldi va bu erda cho'llanish jarayoni avj olgan. Umuman olganda Amudaryoning quyilish qismida Sariqamish, Aqchadaryo va hozirgi deltalari hosil bo'lgan.

Sirdaryo - Markaziy Osiyodagi eng uzun daryo (uzunligi 3000 km ga yaqin). Uning havzasi ham juda katta (463 ming km²). Markaziy Tyanshan tog'laridan boshlanuvchi Norin daryosi Sirdaryoning bosh qismidir. Norin daryosi tog' daralari bo'ylab harbgga tomon oqar ekan, Namangan shahri yaqinidagi Baliqchi qishlog'i yonida Farg'ona va Oloy tizmalaridan boshlanuvchi Qoradaryo bilan qo'shiladi va shu erdan Sirdaryo nomini oladi. Farg'ona vodiysidan chiqqach, daryo shimoli- g'arb tomon oqa boshlaydi va shu yerda unga o'ngdan Ohangaron, Chirchiq, Keles, Aris daryolari kelib qo'shiladi. Sirdaryo shimoli- g'arb tomon Qizilqumning chegarasi bo'ylab oqib, Orol dengiziga borib quyiladi. So'nggi yillarda Sirdaryo suvi sug'orma dehqonchilikka ishlatilishi natijasida u Orol dengiziga juda kam miqdorda suv quyadi.

Sirdaryoning deyarli barcha irmoqlari asosan qor va muzliklardan suv oladi. Daryo suvining eng ko'paygan vaqti iyunda bo'lib, apreldan to avgustgacha unda suv ko'p bo'ladi.

Sirdaryoning sug'orishdagi va gidroenergetika ahamiyati juda katta. Bu daryodan U.Yusupov nomli Katta Farg'ona kanali, Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanallari, Katta Andijon kanali, Shimoliy va Janubiy mirzacho'l va Guliston kanallari suv oladi. Markaziy Osiyodagi gidroenergetikaning yirik GESlari va suv omborlari ana shu daryoda va uning irmoqlarida qurilgan. Masalan, Sirdaryoning yuqori oqimidagi yirik To'xtagul gidrouzeli, Bekobod shahri yaqinidagi Farhod GESi, Xo'jand yaqinidagi Qayroqqum GESi, Chirchiq daryosidagi Chorvoq GESi, Bo'zsuv gidroenergetika kaskadi va boshqalar shular jumlasidandir.

Qashqadaryo - Amudaryoning qadimiy irmoqlaridan biri bo'lib, u Hisor tog' tizmasining g'arbiy yonbag'irlaridan boshlanadi. Hozirgi vaqtda Muborak shahriga yetmasdan cho'lda qurib qoladi. Qashqadaryoning boshlang'ich irmoqlari (Yakkabog', Oqsuv, Tanhoz) qor- muzlardan, qolgan quyi qismi irmoqlari qor – yomg'irlardan to'yinadi. Uning suvidan sug'orma dehqonchilikda keng foydalaniladi.

Zarafshon daryosi - Turkiston, Zarafshon, Oloy tizmalari tutashgan joydagi Zarafshon muzligidan boshlanadi. U Samarqand yaqinida Oqdaryo va Qoradaryoga ajralib, Xatirchi qishlog'ida yana qo'shiladi. Zarafshon daryosi muz- qorlardan to'yinadi. U tekislikka chiqqandan so'ng Buxoro va Qorako'l deltalarini hosil qiladi.

Ko'llari. Notekis taqsimlangan ko'llarning 80%i tekisliklarda katta qismi (daryo vodiylarida, deltalarida, Qozog'iston past tog'larida, To'rg'ay botig'ida) joylashgan. Tog'larda ko'llar ko'llar kamroq.

Orol dengizi. O'rta Osiyoda eng katta ko'l kattaligijihatidan dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi. Maydoni 27000 km² uzunligi 414 km, dengizning eng

chuqur joyi uning g'arbiy qismida joylashgan(69m). Amudaryo va Sirdaryo suvlari quyiladi. Dengiz suvining sho'rligi esa 10-11‰ dan 37‰ ga yetdi.

Balxash ko'li - Markaziy Osiyoda Orol dengizidan keyin maydoni jixatidan ikkinchi o'rinda turadi. Uning maydoni 17,8 ming km². sharqdan g'arbga 605 km cho'zilgan. Balxash ko'lining g'arbiy qismiga Ili daryosi quyilishi natijasida uning g'arbiy qismi chuqurdir, sharqiy qismi aksincha sho'rdir.

So'nggi yillarda Ili daryosi havzasida sug'orish ishlarining rivojlanishi, Qopchig'ay suv omborining qurilishi tufayli ko'lga yil sayin kam suv kelib, oqibat natijada suv sathi 3 metrga pasayib ketdi. Yaqin yillarda Balxash ko'li bo'yicha ijobiy choralar ko'rilmasa, uning taqdiri ham Orol dengiziga o'xshab ketadi. Shuning uchun ko'lga quyiladigan suv miqdorini bir tartibda saqlab turish kerak.

Issiqko'l Tyanshan tog' tizimidagi Kungay va Terskay tizmlarining orasidagi tektonik botiqda joylashgan. Uning maydoni 6,2 ming km². U chuqur ko'l bo'lib, eng chuqur eri 702 m. Suvining sho'rligi 5,8 g/l. Unga asosan kichik daryolar va soylar quyiladi. Ko'lning sharqiy qismida Prejevalsk shahri bo'lib, u Issiqko'lni ilk bor tekshirgan rus olimi Prejevalskiy nomiga qo'yilgan.

Suv omborlari. Markaziy Osiyo hududidagi daryolar suv rejimini tartibga solib, bahorgi, qishki va kuzgi suvlarni to'plab, yozda sug'orm dehqonchilikda ishlatish maqsadida o'lkaning katta-kichik daryolarida sun'iy ko'llar – suv omborlari bunyod etilgan. Suv omborlarning ko'pchiligi tog' oldi mintaqalarida qurilgan. Ularning eng muhimlari quyidagilar: Ili daryosida Qopchig'ay, Norin daryosida To'xtag'ul, Chirchiq daryosida Chorvoq, Ohangaronda Toshkent, Qoradaryoda – Andijon, Sirdaryoda – Qayroqqum, Chordara, Zarafshonda Kattaqo'rg'on, Quyilimozor, Qashqadaryoda Chimqo'rg'on, Qarshi kanalida Talimarjon, Surxondaryoda Janubiy Surxon, Amudaryoda Tuyamo'yin, Vaxshda Norak, Qoraqum kanalida Xovuzxon va boshqalar.

Savollar

- ☒ O'rta Osiyo tushunchasi.
- ☒ Siyosiy xaritadagi o'rni.
- ☒ Qaysi olimlar tomonidan tekshirilgan?
- ☒ Rel'yef tushunchasi
- ☒ O'rta Osiyo iqlimi
- ☒ Daryolar va ko'llar tuzilishi

Glossariy

- ✎ **Geosiyosiy o'rni** – hudud (davlat)ning siyosiy geografik o'rni. Bunda hudud (davlat)ning o'zaro siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish, tinchlikni ximoya qilish imkoniyatlari muhim rol' o'ynaydi.

- ✎ **Tabiiy sharoit** – insonning yashash va mehnat qilish sharoitini ta'minlovchi tabiat unsurlari va quvvat (energiya)dir. Ular joylarining yer ulti tuzilishi, iqlimi, yer-suv sharoitlaridir.
- ✎ **Tabiiy resurs** – insonning yashash va ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita foydalanadigan barcha turdagi tabiat ne'matlaridir. Ular tugamaydigan (quyosh, shamol, okean, yer ichki energiyasi, yadro energiyasi kabilar) va tugaydigan (o'simlik, hayvonot, tuproq, o'rmon, rekreatsiya, mineral boyliklar) resurslariga bo'linadi.

2-mavzu: Markaziy Osiyo aholisi va mehnat resurslari

Reja

- 1. O'rta Osiyo aholisini joylashishi**
- 2. Aholining zichligi**
- 3. Jinsiy va milliy tarkibi**

Aqliy hujum metodi savollari

- Aholi tushunchasi nima?
- Aholi soni deganda nimani tushunasiz?
- Aholi joylashuvi nima?
- Aholi zichligi tushunchasi?
- Millat?
- Jinsiy tarkib?
- Yosh tarkibi?
- Mehnat resursi?

O'rta Osiyo davlatlarining demografik hususiyatlariga oid ma'lumotlar ancha ko'p bulib, ularda keltirilgan ko'rsatkichlarlar bir-birdan farq qiladi. Shunga qaramasdan demografik hususiyatlarni belgilovchi qonuniyatlar deyarli bir xilda. Shuning uchun aholiga xos bulgan qonuniyatlarini bilishga e'tiborimizni qaratishimiz kerak.

O'rta Osiyo aholisi haqidagi ma'lumotlar 1897; 1926; 1939; 1959; 1970; 1979; 1989-yillardagi aholi ro'yxatlari materiallaridan va keyingi yillarda chiqqan tsatitsik ko'rsatkichlar asosida tavsif etildi. Bu mintaqada boshqa joylardagi kabi aholinig umumiy o'sishi ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-geografik hususiyatlar bilan bog'lik. Jumladan, Turkistonning bosib olinishi, harbiylarning ko'chib kelishi, shaharlarning vujudga kelishi, jahon urushlarining oqibatlari, milliy va diniy mojarolar, davlatlarning parchalanib ketishi va boshqalar aholining umumiy ko'rsatkichini belgilovchi omillardir. Masalan: O'zbekistonning aholisi 1941-1945 yillarda 1,4 mln kishiga kamayib ketgan. Aholi umumiy soni o'rtacha, 1917-1940 yillarda 2,7 % ga, 1960-1970 yillarda 3,3 -3,8 % ga; 1999-2005 yillarda 1,4 % ga usdi.

O'rta Osiyo aholisining umumiy soni hozirgi vaqtda (2013 y.), 66,6 mln kishini tashkil etdi. Shu jumladan O'zbekistonda 30,0 mln; Qozog'istonda 18,0 mln; Tojikistonda 7,9 mln; Turkmanistonda 5,1 mln va Qirg'izistonda 5,6 mln

kishiga teng bo'ldi. Aholishunoslarining prognoziga qaraganda 2025 yilga borib mamlakatlardagi aholining soni qo'yidagicha bo'lar ekan: O'zbekistonda 43,3 mln; Qozog'istonda 20,5 mln; Tojikistonda 13,1mln; Turkmanistonda-7,9 mln va Qirg'izistonda-7 mln kishi. O'rta Osiyo regionida umumiy aholi soni 2025 yilga borib 92 mln kishiga etishi mumkin. Aholi usishining barcha davlatlarda bir xilda emasligiga mintaqada shakllangan murakkab tarixiy-geografik, va iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlar katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqa aholisining asosiy qismi O'zbekistonda yashaydi(43,5%).

O'rta Osiyo davlatlari aholisining yuqori sur'atlar bilan o'sishi (Qozog'istondan tashqari) asosan tabiiy o'sish hisobiga bo'lmoqda. Tabiiy o'sish ko'rsatkichiga ko'ra O'rta Osiyo davlatlari MDH da oldingi o'rinda turadi. Tabiiy o'sish ko'rsatkichi bo'yicha keyingi yillarda Turkmaniston yuqori ko'rsatkichga ega bo'lmoqda. O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, va Qozog'iston Respublikalarida ming kishi hisobiga tabiiy o'sish 26,6; 25,6; 21,4; va 11,8 kishini tashkil etgan.

O'O Respublikalarida tabiiy o'sish bir xil emas. Birgina 1990-1997 yillarning o'zida O'zbekiston aholisi 13,3 % ga ko'paydi. Qozog'istonda aholi soni kamayishi ko'zatildi. Buning asosiy sababi tabiiy o'sishning kamayib borayotganligidir. 1990 yil har ming kishiga tabiiy o'sish 18,1 kishi tug'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1997 yilda 5,0 kishiga teng bo'ldi. Qozog'istonning qishloq joylarida bu ko'rsatkich 20,4 kishini tashkil etadi. Shuningdek Tojikistonda 1990-97 yillarda tabiiy ko'payish yuqori bo'lib, MDH davlatlari orasida yetakchi o'rinni egallagan. Keyingi yillarda mamlakatdagi o'zaro kelishmovchiliklar oqibatida aholining tabiiy va mexanik o'sishida kamayishlar ko'zatildi.

O'rta Osiyo aholisining geografik joylashuviga ham ob'ektiv ham sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Vodiy va vohalar, qadimiy viloyat markazlarida aholi ko'p va zich yashaydi. Mintaqaning barcha hududlarida shahar aholisiga qaraganda qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil qiladi. Ya'ni umumiy aholining 45 % i shaharlarda, qolgan 55 % esa qishloqlarda yashaydi. Tojikiston Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalarida urbanizatsiya jarayoni juda sekin kechmoqda. Urbanizatsiya darajasi bo'yicha Qozog'iston O'O davlatlari ichida eng yuqori ko'rsatkichga ega.

Yirik ma'dan konlarining topilishi va ishga tushirilishi, yangi yerlarni o'zlashtirilishi va yirik irrigatsiya-melioratsiya ishlarini amalga oshirilishi bilan aholi joylashuvida o'zgarishlar bo'lmoqda.

Urbanizatsiya darajasi hozirgi vaqtda Qozog'istonda 57 % ni, Turkmanistonda 45 % ni, O'zbekistonda 36 % ni, Qirg'izistonda 37 % ni, Tojikistonda 27 % ni tashkil etmoqda.

O'rta Osiyohududida aholining zichligi har bir kv.km ga 15,0 kishi to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda-58, Qozog'istonda-5,6, Tojikistonda-50, Turkmanistonda-14, Qirg'izistonda-26,2 kishi to'g'ri keladi. Aholi zichligining davlatlar orasida keskin farq qilishi aholining hududiy tarkibi, tabiiy o'sish koeffitsenti, tarixiy omil boshqalar bilan bog'liq.

Aholi zichligi har bir davlat hududlarida ham keskin farq qiladi. Aholining o'rtacha zichligi O'zbekistonda bir kv.km ga Andijon viloyatida 500 kishidan ortiq bo'lsa, Qoraqalpog'istonda 9,5, Navoiyda 7,3 kishini tashkil qiladi xolos.

Aholining jinsiy, yosh va milliy tarkibi muhim ijtimoiy-demografik ko'rsatkich hisoblanadi. Aholining jinsi va yosh tarkibi itsiqbolini belgilash aholini takror barpo etish uchun zarur ko'rsatkichdir.

Turli sabablarga ko'ra ularning salmog'i o'zgarib turgan. Masalan: O'zbekistonda 1939 yilda erkaklar 52,0 % ni, ayollar 48,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1989yil erkaklar 49,0 % ni va ayollar 51 % ni tashkil etgan. 2005 yilda har 1000 erkakka 1016 ayol to'g'ri kelgan.

Mintaqada 1989 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati bo'yicha O'zbekistonda 0-14 yoshdagilar-40.8 %ni, 15-29 yoshda 28.3 %ni, ya'ni jami aholining 69,1 % ni bolalar va o'smirlar tashkil etadi. Hozirda O'zbekiston aholisining o'rtacha yoshi 24 yoshga teng. Aholi yosh tarkibidagi yuqoridagi ko'rsatkichlar mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning itsiqbollarini belgilab beradi.

O'zbekiston aholisining milliy tarkibida o'zbeklar soni 20 mln kishidan oshgan. O'zbekistondan tashqarida, jumladan, Tojikistonda-1300000, Qozog'istonda-409.000, Turkmanistonda-320000 va Afg'onistonda-3000000 dan ortiq o'zbeklar yashaydi. O'zbekistonda umumiy aholining 78,4 % ni o'zbeklar, 4,1 % ni ruslar, 5,3 %ni tojiklar, 4,0 % qozoqlar, 0,9 % ini qirg'izlar 0,6 % ini turkmanlar va boshqa millat vakilari tashkil etadi. O'zbekistonda 1,5 mln kishidan ortiq slavyan xalqlarning vakillari yashaydi.

Qozog'iston Respublikasida 2004 yilgi ma'lumot bo'yicha: qozoqlar-57,2%, ruslar-27,2 %, ukrainlar-3,1 %, o'zbeklar-2,7 %, nemislar-1,6 %, boshqa millat vakillari-8,2 % ni tashkil etadi. Tojikistonda aholining milliy takibida tojiklar-62,3%, o'zbeklar-23,8 %, ruslar-10,5 %, tatarlar-2,0 % va 1,4 % boshqalar millatlar. Qirg'izistonda qirg'izlar 64,6 % ni (2000y) tashkil etadi. O'ODning qishloqlarida asosan tub aholi yashaydi. Masalan O'zbekiston qishloqlarda 96,7 % tub aholidir. Shaharlarda tub aholining ulishi -64,7 % ni tashkil etadi.

O'OD mutsakillik yillarida aholining savodxonligini oshirish, ularga kasbiy yo'nalish berish va madaniy darajasini ko'tarishga katta e'tibor bermokda. Masalan: O'zbekistonda «Ta'lim tug'risidagi qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy datsuri» va boshqalar asosida ish olib borilmokda.

O'ODda mehnat resurslari mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan kishilardan iboratdir. Mehnat resurslarining shakllanishiga aholining yoshi va jinsiy tarkibi, tabiiy o'sish rejasi va boshqa ijtimoiy xolatlar ta'sir ko'rsatib turadi.

O'rta Osiyoda aholi o'sish va joylanishiga oid muammolar mavjud bo'lib, ularni birtaraf qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa mintaqada tabiiy o'sishning turlicha ekanligi va hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganligi (umumiy soni, zichligi ijtimoiy tarkibi va boshqalar), mehnat resurslari va ish bilan bandlik darajasining nomutanosibligi, yoshi va bilimidagi farqlar va x.o. O'rta Osiyodagi har mutsaqil respublikada bozor iqtisodiyoti tsrategiyasini ruyobga chiqarishda, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli va samalali chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek «Respublikamiz boshqa mintaqalar havas qilsa

arziydigan ming-minglab ishchi kuchlariga, qadimdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan mehnatsevarlik, insonparvarlik singari ma'naviy boyliklarga egadir» bu O'OD dagi boshqa xalqlarga ham tegishlidir. SHubhasiz uylab qilingan har bir ish ijobiy tarzda samarasini beradi.

Glossariy

Aholi—o'zining hayotiy faoliyatini ma'lum ijtimoiy va hududiy jamoalar doirasida amalga oshirayotgan insonlar guruhidir.

Aholi migratsiyasi—lotinchadan (migratio) ko'chish, ko'chirish ma'nosini anglatadi.

Millat—insonlarning tarixan shakllangan umumjamo'a guruhlari.

Urbanizatsiya—shaharlar va shahar aholisining soni hamda ulushining ko'payishi bilan bog'langan ijtimoiy-iqtisodiy va geografik jarayon.

Aholi zichligi—muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat yoki biror hudud aholi sonini shu joy maydoniga taqsimlash bilan hisoblab chiqiladi.

Aholi milliy tarkibi—muayyan hudud yoki mamalakatda yashovchi aholining millatlar bo'yicha tarkibi.

3-mavzu: Markaziy Osiyoning xo'jaligi va transporti **Reja**

- 1. O'rta Osiyo xo'jaligi**
- 2. Qishloq xo'jaligi**
- 3. Transporti**
- 4. Hozirgi kundagi holati**

Xo'jaligi. O'rta Osiyo davlatlari xalq xo'jaligi og'ir sanoat, oziq – ovqat va yengil sanoat bilan birgalikda rivojlangan qishloq xo'jaligi majmuasidan iborat. Mintaqa MDH davlatlari orasida xom ashyo etishtirishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. 80 – yillarning boshlarida Sobiq ittifoqning 5% sanoat mahsulotini, 16 % qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib bergan. Hozirgi kunda ham MDH davlatlarida yetishtirilgan paxtaning 95 %i O'ODlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari bug'doy, sholi, makkajo'xori kabi ekinlar ham ko'p etishtiriladi. SHuningdek, ko'plab miqdorda rangli metallar: surma, mis, ko'plab miqdorda neft, gaz, ko'mir qazib chiqariladi. Markaziy Osiyoda eng yirik neftni qayta ishlash zavodlari Qozog'istonning Pavlodar va Chimkent O'zbekistonning Farg'ona zavodlaridir. Bu zavodlarda bir kunda 156,204 barreldan 162,666 barrelgacha neft qayta ishlanadi. Tozalangan neft mahsulotlari iste'molchilarga temir yo'l va quvur transportlari orqali etkazib beriladi. Bir qismi esa xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi. Neftni qayta ishlash zavojlari Qirg'izistonda bo'lib, 1.5000 barreldan 10.000 barrelgacha neft qayta ishlanadi.

Ko'mir qazib chiqarish bo'yicha Qozog'iston Rossiya va Ukrainadan keyin 3 o'rinda turadi. Oltin qazib chiqarish bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin 2 o'rinda, dunyoda esa 8 o'rinda turadi. O'ODlari ichida Qozog'iston Respublikasi iqtisodiy rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Milliy daromad aholi jon boshiga hisoblanganda boshqa davlatlarga nisbatan ancha

yuqori. 1999 yilda Qozog'istonda 4790\$ (O'zbekistonda 2230\$, Tojikistonda 350\$).

O'ODlari orasida Tojikiston davlatining xo'jaligining kam rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Respublika hududining katta qismi tog'lardan iborat bo'lganligi sababli hamda mamlakatdagi nosog'lom vaziyatlar hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlanishiga salbiy ta'sir etmoqda. Umuman olganda bu ko'rsatkichlar Tojikiston Respublikasida nisbatan past.

Qishloq xo'jaligi. Markaziy Osiyo davlatlari xalq xo'jaligining eng muhim ishlab chiqarish tarmog'i bo'lib, dehqonchilikda – paxtachilik, donchilik, bog'dorchilik, uzumchilik sabzavot va poliz ekinlari etishtirish bo'lsa, chorvachilikda qo'ychilik, qoramolchilik, tuyachilik, yilqichilik yaxshi rivojlangan. Keyingi paytlarda baliqchilik, asalarichilik va darrandachilik ham rivojlanib bormoqda.

Qozog'iston Respublikasida hozirgi vaqtda 25 mln. boshdan ziyod qo'y va echkichilik bor. Qoramolchilik chorvachilikning ikkinchi tarmog'i hisoblanib uning soni 8 mln.boshdan iboratdir. Respublikada dehqonchilik qiladigan maydon 34 mln.ga bo'lib, uning 2/3 qismida bahorgi bug'doy, arpa, tariq, makkajo'xori, sholi qolgan qismiga qandlavlagi, paxta, kartoshka va yem xashak ekinlari ekiladi. Qirg'izistonda dehqonchilikning yetakchi tarmog'i donchilik bo'lib, barcha ekin maydonlarini 1/2 qismida donli ekinlar etishtiriladi. Texnik ekinlardan paxta, tamaki, qandlavlagi ekiladi. Chorvachilikda mayin junli qo'ychilik ustunlik qiladi.

Turkmanistonda sug'orma dehqonchilik ustunlik qiladi va sug'orib ekiladigan erlar maydoni 1.3 mln. Donchilik va paxtachilikka ixtisoslashgan. Chorvachilikda qorako'lchilik etakchi tarmoq hisoblanadi.

Tojikistonda paxtachilik, donchilik, bog'dorchilik tarmoqlari muhim tarmoqlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida dehqonchilikda paxtachilik etakchi tarmoq hisoblanadi. O'zbekiston jahonda yalpi paxta etishtirish bo'yicha 4 – o'rinda, paxta tolasi eksporti bo'yicha 2 – o'rinda turadi. Dehqonchilikda g'allachilik, sholikorlik, kanopchilik, lavlagikorlik, mevachilik, uzumchilik, polizchilik, sabzavotchilik; chorvachilikda qoramolchilik, qo'ychilik, asosan qorako'lchilik, echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik tarmoqlari ham asosiy sohalarga kiradi.

Sanoati. Markaziy Osiyo MDH davlatlari orasida asosan xom ashyo va yarim xom ashyo mahsulotlari, qisman sanoat mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Sobiq ittifoq davrida Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston Respublikalarida tog'-kon, yoqilg'i – energetika, rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoat tarmoqlari shakllandi.

Markaziy Osiyo respublikalari orasida Qozog'iston davlati sanoat ishlab chiqarish bo'yicha ajralib turadi. Buning uchun etarli miqdorda tarmoqlar mavjud. Xududda yoqilg'i sanoati uchun ko'mir, neft va tabiiy gaz zahiralari mavjud. Eng yirik havza Qarag'anda konidir. Bu yerda toshko'mir va kokslanuvchi ko'mir qazib olinadi. Ekibaztuz havzasidan ochiq usulda qo'ng'ir ko'mir qazib olinadi. Qozog'iston Respublikasida neft konlari Emba g'avzasida, Mang'ishloq va SHimoliy Ustyurtda mavjud. Kaspiy dengizi shelfida Mug'ojar tog'lari bilan

Qozog'iston past tog'larining oralig'ida neft zahiralari mavjud. Neft bor joyda gaz konlari ham bor.

Markaziy Osiyo davlatlarida yiliga 200 mlrd. kVt. soatga yaqin elektr-energiyasi ishlab chiqariladi. Ba'zi bir respublikalarda elektroenergiyaning asosiy qismi issiqlik, bazi birlarida gidroelektrostantsiyalarda ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, Qozog'iston elektroenergiyasining asosiy qismi issiqlik elektrostantsiyalarida ishlab chiqariladi. Bu xol O'zbekistonga ham tegishlidir. Issiqlik elektrostantsiyalarining ichida eng yirigi Aqsu GRESi bo'lib, uning quvvati 2,4 mln kvt.dir. Yirik elektrostantsiyalar Almati, Qarag'anda, Petropavlovsk, Taraz, SHimkent, Pavlodar shaharlarida qurilgan, gidroelektrostantsiyalar: Uskemen va Buxtarma GESlaridan iborat.

Turkmaniston respublikasida ham neft va gaz zahiralari etarli. Gaz zahiralari hajmiga ko'ra Turkmaniston MDHda Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shuning uchun ham mamlakatning asosiy sanoat tarmog'i tabiiy gaz va neftni qazib olish va qayta ishlash bilan bog'liq. Bu davlatda ham asosan issiqlik elektrostantsiyalari energiya ishlab chiqaradi. Turkmaniston Rossiya, Ukraina, Eron va Turkiyaga gaz va neft eksport qiladi. Yaponiyaga gaz sotishni rejalashtirgan.

Tojikiston Respublikasida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ko'mir, neft va gaz konlari mavjud. Ammo gidroenergetik potentsiali yuqori. MDH davlatlari orasida gidroenergiya quvvati bo'yicha Rossiya Federatsiyasidan so'ng 2-o'rinda to'radi. Vaxsh daryosida qurilgan Nurek GES-i asosiy elektr energiya manbai hisoblanadi. Rogun, Pomir GES-lari qurish mo'ljallangan. Farg'ona vodiysidagi hududlari asosan O'zbekistondagi GES va GRESlar energiyasidan bahramand bo'lishadi.

Qirg'izistonda ham toshko'mir va qo'ng'ir konlari mavjud. Neft va gaz zahirasi mahalliy ahamiyatga ega. Lekin gidroenergetik resursga boy. Gidroenergiya potentsiali bo'yicha Markaziy Osiyoda Tojikiston Respublikasidan so'ng 2-o'rinda to'radi. Norin daryosida To'xtag'ul GESi ishga tushirilgan. Yoqilg'i va energiya ning malum qismini O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalaridan oladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida gaz zahiralari, neft va qo'ng'ir ko'mir hamda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan toshko'mir konlari mavjud. O'zbekistonning Farg'ona vodiysida neft va gaz, Ohangaron vodiysida qo'ng'ir ko'mir, Buhoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari hamda Qo'yi Amudaryo iqtisodiy rayonida gaz va neft zahiralari ning yirik konlari mavjud. Asosiy elektroenergiya manbai issiqlik elektrostantsiyalaridir. Bular: Toshkent, Yangi Angren, Angren, Shirin, Navoiy, Taxiato'sh GRESlari. Yiliga 55 mlrd. kVt. soatdan ko'proq energiya ishlab chiqariladi. Respublika tabiiy gaz va elektr energiya ni eksport qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida neft va gaz qazib olish bo'yicha;

- Qozog'iston
- O'zbekiston
- Turkmaniston

Markaziy Osiyo davlatlarida yoqilg'i-energetika sanoatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri Markaziy Osiyoda yagona energetika sistemasini vujudga keltirish, neft va gaz boyliklarini o'zlashtirish va ularni jahon bozoriga olib kirishdir.

Transporti. Transport moddiy ishlab chiqarishning eng muhim sohalaridan biridir. Uning vazifasi ishlab chiqarish vositalari va odamlarni tashish hamda tayyor mahsulotni iste'molchilarga etkazib berishdir. Ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish butun transport va uning qismlarini rivojlantirish darajasida transport vositalaridan oqilona foydalanishga bog'liq.

Temir yo'l transporti. Markaziy Osiyoda yuk va yo'lovchi tashishda temir yo'l transportining ahamiyati katta. Ayniqsa hududi katta bo'lgan Qozog'istonda temir yo'l transporti yaxshi rivojlangan. Barcha respublikalar bir-biri bilan temir yo'llar orqali aloqa qilishadi. Qo'ng'irot – Beymet – Makat temir yo'lining qurilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Jami tashiladigan yuklarning 80%i temir yo'l transportiga to'g'ri keladi. Yangi qurilgan Seraxs – Mashg'ad temir yo'li xorij davlatlar bilan aloqani yaxshilashga imkon beradi.

Avtomobil transporti katta ahamiyatga egadir. Yirik avtomobil magitrallaridan: Toshkent–Jambil–Bishkek–Alma-Ata, Katta O'zbekiston yo'llaridir. Bishkek – O'sh avtomobil yo'li Shimoliy Qirg'izistonni Farg'ona vodiysi bilan bog'lagan bo'lsa, O'sh – Xorot avtomobil yo'li Pomir bilan bog'langan.

Havo transporti ham yaxshi rivojlangan. Barcha poytaxt va yirik shaharlar. Ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan havo yo'llari orqali bog'langan.

Quvur transportining ahamiyati ortib bormoqda. Ko'plab neft va gaz quvurlari tortilgan. M: Nebittog' – Krasnavodskiy (Turkmanboshi), Jarkogo – Buxoro – Samarqand – Toshkent, Muborak – Toshkent – Chimkent – Jambil – Bishkek – Almati, Bayram – Ali – Ashxobod – Bezmein va boshqalar.

Suv transporti yaxshi rivojlangan. Daryo transporti asosan Amudaryo va qisman Sirdaryoda yo'lga qo'yilgan. Balxash ko'lida, Irtish, Ural, Amudaryoda mavjud, Markaziy Osiyo davlatlarini bog'lovchi Turkmanboshi porti dengiz transporti markazi vazifasini bajaradi. 1962 yilda Turkmanboshi–Boku paromi ochildi va unda har xil yuklar tashiladi. Amudaryo suv transportidan Tojikiston, Afg'oniston, O'zbekiston, Turkmaniston davlatlari foydalansa, Irtish daryosi transportidan Qozog'iston, Rossiya, Xitoy davlatlari foydalanishadi. Suv transportida ayniqsa Kaspiy dengizining, qisman Issiqko'lning salmoqli ulushlari bor.

Glosarriy

Ishlab chiqarish omillari - ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga ta'sir etadigan barcha turdagi sabablar.

Xalq xo'jaligi tarmog'i – bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarish jarayonlari uxshash bo'lgan barcha korxonalar yoki korxonalar guruhi tushuniladi.

Korxona – bu ma'lum bir mahsulot ishlab chiqaradigan va uni almashtiradigan iqtisodiy-geografik va iqtisodiy ob'ektdir.

Og'ir sanoat—asosan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan tarmoqlardan iboratdir, ya'ni unda mehnat qurollari (mashinalar, jihozlar va h.k.) va mehnat predmetlari (xom ashyo, yoqilg'i va h.k.) ishlab chiqariladi.

Sanoat markazi—bir yoki birnecha sanoat tarmoqlari to'plangan shahar yoki shaharchalardir.

Energiya tizimi—itse'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda qatnashadigan va bir-biri bilan elektr liniyalari bilan bog'langan yirik elektr tsantsiyalar birlashmasi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari nisbati — qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirishda dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari hisssasi.

Sug'orma dehqonchilik — sun'iy sug'orish asosida faoliyat ko'rsatadigan dehqonchilik.

Transport (lotincha transporto — tashiyman degan ma'noni anglatadi) moddiy ishlab chiqarishning yuk va yo'lovchilar tashishni amalga oshiradigan eng muhim tarmoqlaridan biri.

Transport magitsrali — texnik jihatdan yaxshi jihozlangan, juda katta yo'lovchi va yuk oqimiga ega bo'lgan yo'l.

Suv transporti — tabiiy (daryo, ko'l, dengiz, okean) va sun'iy (kanal, suv ombor) suv yo'llari orqali yuk va yo'lovchi tashiydigan transport turi.

Aeroport — yo'lovchi va transport aviatsiyasining muntazam ishlashini ta'minlash uchun qurilgan va havo yo'llarida joylashgan doimiy aerodrom.

Port — kemalar turishini, yuklarni tushirish-ortishni va kemalarga xizmat qilishni ta'minlaydigan inshootlari, qurilmalari va jihozlari bo'lgan okean, dengiz va ichki suv havzalaridagi joy.

4-mavzu: Qozog'iston Respublikasi

Reja

1. Qozog'istonning tabiiy sharoiti, tabiiy boyliklari.
2. Aholisi va mehnat resurslari
3. Xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

Geografik o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.

Qozog'iston Respublikasi MDH davlatlari orasida hududining kattaligi bo'yicha ajralib turadi. Uning maydoni 2,7 mln. km², umumiy maydoni butun er shari maydonining 2 % ni, Osiyoning 6,1 % ni, mintaqa hududining 2/3 qismidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Kattaligiga ko'ra u MDHda Rossiyadan keyin 2, jahonda esa 9 o'rinni egallaydi. Ammo aholisining soni (15,2 mln. kishi, 2006y.)ga ko'ra u MDHda 4, jahonda esa 52 o'rinda turadi. Poytaxti Ostona shahri.

Uning hududi shimoldan janubga 1800 km, g'arbdan sharqqa esa 3000 km ga cho'zilgan va quruqlikda 5 ta davlatlar (Rossiya, Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmaniston) bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiy uzunligi 13331 km ni tashkil qiladi. Shuningdek, 600 km masofada Rossiya, Ozarbayjon, Turkmaniston bilan Kaspiy dengizi orqali ham chegaralarga ega. Respublikaning iqtisodiy geografik o'rni nisbatan qulay. Markaziy Osiyo davlatlari shimol, g'arb va sharq bilan bog'lovchi asosiy temir yo'l va avtomobil yo'llari

ustida joylashgan. Boshqacha aytganda, Qozog'iston Rossiya, Xitoy va Yaponiya hamda G'arbiy Yevropa davlatlari bilan eng qulay holda bog'lanish imkoniyatlariga ega. Uning Kaspiy dengizi bilan tutashligi ham IGO' qulayliklarini oshiradi.

Qozog'iston foydali qazilmalarga boy bo'lib, bu yerda yonuvchi rudali, rudasiz foydali qazilma konlarining ko'pligi ko'p tarmoqli sanoat korxonalarini rivojlantirishiga imkon beradi. Respublika foydali qazilmalarning ko'pligi jihatdan dunyoga oldingi o'rinda turadi, ayniqsa kimyo sanoati uchun xom ashyolar ko'pchiligini tashkil etadi. Fosforit konlari Qoratovda va Aktyubinsk viloyati hududiga to'g'ri keladi. Natriy sulfat konlari janubiy va markaziy Qozog'istonda uchraydi, yirik osh tuzi konlari Pavlodor va Qizil O'rda viloyatlarida, neft-gaz rayonlari Kaspiybo'yi pasttekisligi Mang'ishloq, Ustyurt, Sharqiy Orol bo'yi, To'rg'ay botig'i sharqiy va janubiy Qozog'iston tog' orolig'i botiqlariga to'g'ri keladi. Ko'mirning umumiy geologik zahirasi (400 dan ortiq kon) 140 mlrd.tonna atrofida bo'lib, jumladan Qarag'anda havzasida – 50 mlrd.t. To'rg'ay havzasida – 50 mlrd.t. Ekibastuzda – 12 mlrd.t., Qarag'anda ko'mir havzasidan toshko'mir qazib olinadi, bu kokslanuvchi ko'mirdir. Xalqaro geografik mehnat taqsimotida yirik sanoat ishlab chiqaruvchi davlat bo'lib qatnashadi. Uning hisobida MDH davlatlaridagi 1/3 qismi mis eritish, 1/2 qismi rux, 2/3 qismdan ko'proq qalayga to'g'ri keladi. Qozog'iston qora metallar ishlab chiqarish, neft va ko'mir qazib olish, bundan tashqari oziq – ovqat sanoati, don etishtirish jumladan go'sht va qorako'l terisi etishtirish bo'yicha ham alohida o'rinda turadi. Qozog'iston polimetal rudalari bo'yicha ham dunyoda oldingi o'rinlardan birida, MDHda esa 1-o'rinda turadi. Bu erda qalay va ruxdan tashqari oltin, kumun, kadaliy va boshqa 30 ga yaqin rangli va nodir metallar uchraydi. Qozog'iston Respublikasi mis zahirallari bo'yicha MDH davlatlari orasida 1 – o'rinda turadi.

Qozog'iston iqlimi keskin kontinental, quruq iqlimdir. Shuning uchun daryolar ayniqsa respublikaning markaziy vismida juda kam. Suv tanqisligi har qanday quruluşni avval suv izlab topish va suv ombori qurishdan boshlashga majbur qiladi. Qozog'istonning umumiy qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlari 225 mln.ga.ni tashkil etadi. O'tloq va yaylovlar 190 mln.ga., shudgor qilinadigan erlar 36 mln.ga.ga yaqindir. Shunga qaramasdan suv tanqisligi bu erda qishloq xo'jaligidan yuqori hosil olishga imkon bermaydi.

Aholisi va mehnat resurslari.

Qozog'iston Respublikasi aholisi MDH davlatlari orasida eng ko'p millatlilardan biridir. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, unda 110 dan ortiq millat vakillari itisqomat qiladi. Buning asosiy sababi aholisining o'ziga xos dinamikasidir. Uning aholisi soni quyidagicha o'zgarib bordi (mln kishi hisobida): 1926y. – 6,0; 1939y. – 6,1; 1959y. – 9,3; 1979y. – 14,7; 1989y. -16,5; 1995y. – 16,7; 1997y. – 15,9; 2006y – 15,2. Ko'rinib turibdiki 1939-1959 yy. va 1959-1979yy. orasida aholi son jihatdan ancha yuqori sur'atlarda o'sgan. Birinchi davrda og'ir urush yillari bo'lganiga qaramasdan bu holatning buzilishiga sabab, sobiq Ittifoqning G'arbiy va Markaziy rayonlaridan anchagina sanoat korxonalari va aholining evakuatsiya qilinganligidir. Ikkinchi bosqichda aholining tez ko'payganligining sababi, ushbu davrda Qozog'istonda keng doirada qo'riq va

boʻz erlarni oʻzlashtirish ishlarining davom ettirilgani va eng muhimi Gʻarbiy rayonlardan millionlab turli millat vakillarining bu respublikaga koʻchirib keltirilganligidir. Ikkinchi sabab, II jahon urushidan oldin, ayniqsa undan keyingi davrlarda Qozogʻistonda koʻplab er otsi konlarining oʻzlashtirilishi va yangi sanoat korxonalarining ishga solinishi sababli yevropalik millat vakillaridan oʻn minglab kishilar koʻchirib keltirilgan.

Uchinchi sabab, Qozogʻiston 30-yillar oxirlari va 50-yillar boshlarida amalga oshirilgan ommaviy repressiya qilinganlarining ham anchagina qismini qabul qilgan.

Shunday qilib, bu holatlar nafaqat Qozogʻiston aholisining son jihatdan tez koʻpayishiga, shuning bilan aholi milliy tarkibining murakkablashib ketishiga ham olib keldi.

Soʻnggi 1989 y. Aholi roʻyxati maʼlumotlariga koʻra respublika aholi-sining milliy tarkibida qozoqlar 39,7% (1959 yilda 30,0%), ruslar 37,8% (42,7%), ukrainlar 5,4% (8,2%), nemislar 5,8% (7,1%), oʻzbeklar 2,0% (2,5%), boshqa millat vakillari 9,3% (9,5%) ni tashkil qiladi. Koʻrinib turibdiki, aholi milliy tarkibi dinamikasida 1959 va 1989 yillar orasida evropalik millat vakillari hissasi tobora kamayib, mahalliy millat vakillari hissasi ortib borgan. Buning asosiy sababi bu milliy guruhlarda aholi tabiiy koʻpayish koʻrsatkichlarining turlicha kechayotganidir, yaʼni mahalliy millat vakilllarida tugʻilish koʻrsatkichlari ancha yuqori va evropalik millatlarda esa, aksincha, pats ekanligidir.

1999 yilgi maʼlumotlar boʻyicha respublikadagi qozoqlarning soni 7985 mingni tashkil etdi (respublika aholisining 53,4 % i). Hozirgi paytda respublika aholisining 57,2 % ni qozoqlar tashkil etadi (2006y). Qozoqlar asosan respublikaning janubida va gʻarbida joylashgan. Bu koʻrsatkichlar boʻyicha qozoqlar Qiziloʻrda oblatsida umumiy aholining 94 %-ni, Atirau oblatsida 89 %-ni, Mangʻitsauda 79 %-ni, Janubiy Kozogʻistonda 68 %-ni tashkil etmoqda. Qishloq joylarda aholining 90 %-dan ortigʻi qozoqlardir. Mamlakatda qozoqlardan keyingi eng koʻp diaspora-ruslar, respublika aholisining 27,2 %-ni (5 mln ga yaqin) tashkil etadi. Ukrainlar esa 3,1 % (469,4 ming), nemislar 1,6 %, oʻzbeklar 2,7 %, tatarlar 1,6 %-ga teng. SHuningdek 2,6 % boshqa millat vakillari tashkil etadi. Butun jahonda qozoqlarning umumiy soni 12,5 mln dan ortiq. Jahondagi 3 mingdan ortiq xalqlarning ichida demograflarning takidlashicha soni jihatdan qozoq etnosi 70 oʻrinda. Qozoqlarning 4 mln-dan ortigʻi respublikadan tashqarida jahonning 54 davlatida yashaydi.

Aholining hududiy joylashishi tabiiy yashash sharoiti va hududiy iqtisodiy jihatdan oʻzlashtirishi darajasiga bogʻliq holda turlichadir. Soʻngi maʼlumotlarga koʻra Qozogʻiston aholisining oʻrtacha zichligi har 1km maydonga 5,5 kishini tashkil qiladi. Bu MDHda eng pats koʻrsatkichdir. Janubiy va SHimoliy Qozogʻiston intensiv dehqonchilik rayonlarida aholining oʻrtacha zichligi eng yuqori 22-25 kishini tashkil qiladi. Ammo Gʻarbiy va Markaziy Qozogʻistonning choʻl hududlarida bu koʻrsatkich har bir km² ga 1-2 kishidan ortiq emas.

Qozogʻistonda urbanizatsiya darajasi Markaziy Osiyoda eng yuqori. 2005 yilda jami aholining 57,0 % shaharlarda, qolgan qismi esa qishloqlarda yashagan.

Umuman respublikada urbanizatsiya jarayoni ancha tez bordi. 1926 yilda shahar aholisining salmog'i atigi 9 % ni tashkil qilgan edi.

Hozirda Qozog'istonda 86 shahar, 200 atrofida shaharcha mavjud. Mamlakatda bitta millioner shahar Almati shahri (1 mln 175,4 ming) mavjud. Yirik shaharlar qatoriga Qarag'anda (518 ming), Atsana (511 ming) kiradi.

Respublikada aholining 59,2 % (2006y.) mehnatga layoqatli yoshdagilardan iborat. Ammo Qozog'iston hududida mehnat resurslariga hamisha ehtiyoj seziladi. Aholining mehnatga yaroqli qismi sobiq ittifoq davrida 16-dan 60 yoshgacha erkaklar, 16-dan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar tashkil etgan bo'lsa, hozir 16-dan 63 yoshgacha erkaklar, 16-dan 58 yoshgacha bo'lgan ayollar mehnat resurslari hisoblanadi. Respublikada aholining 48,2 %-ni erkaklar, 51,8 %-ni ayollar tashkil etadi.

Xo'jaligi.

Hozirgi Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyoti (xalq xo'jaligi) indutsrial-agrar xarakterga ega. Tarixiy davrlar davomida asosan ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan bu o'lka xo'jaligida XIX asr oxirlarida, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 77% aholi chorvachilik va 18% aholi dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Ittifoq davrida Qozog'istonning boy tabiiy boyliklarini o'zlashtirilishi natijasida hozirgi davr sanoatining asosiy tarmoqlari yaratildi, transport-kommunikatsiya va shaharlar tizimi bunyod qilindi. Respublika so'nggi vaqtlarda sobiq ittifoqning 40% rux, 60% qo'rg'oshin, 90% sariq fosfori, 95% xrom rudasi, 35% ga yaqin mis va boshqa turdagi sanoat mahsulotlarini etkazib bergan.

Sanoati. Respublika xo'jaligining yetakchi tarmog'i sanoatdir. 2006 yil ma'lumotiga ko'ra tarkibi va ularning mahsulotlar ishlab chiqarish hajmiga ko'ra (% hisobida) tutgan o'rni quydagicha: yoqilg'i-energetika 26,6 %, metallurgiya-26,1 %, kimyo neftokimyo -4,0 %, mashinasozlik va metallsozlik-5,4 %, qurilish materiallari, oyna va chinni-kulolchilik 5,5 %, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza- qog'oz-2,4 %, yengil sanoat 12,1 % va oziq ovqat sanoati -17,9 %.

Sanoat tarmoqlari tarkibi va ularning iqtisodiyotida tutgan o'rni ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston sanoatining tayanch tarmoqlari yoqilg'i –energetika va metallurgiya majmualari ekan, ular jami sanoat mahsulotlarining salkam 53 % ni ishlab beradi. Nisbatan sutis rivojlangan tarmoqlari esa aholining kundalik itse'mol mahsulotlari ishlab chiqaradigan yengil va oziq-ovqat sanoatlaridir. Ular birgalikda sanoatning 30 % mahsulotini beradi.

Qishloq xo'jaligi. Ma'luki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi er resurslariga asoslangan. 2003 yilning 1 yanvaridagi tsatitsik ma'lumot bo'yicha, respublikaning jami qishloq xo'jaligiga yaroqli erlar 78,6 mln ga-ni tashkil qildi.

Respublika qishloq xo'jaligining muhim hususiyatlaridan biri ishlab chiqarilayotgan jami mahsulotlari hissasida dehqonchilikning utsunlik qilishidir. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dehqonchilikning hissasiga 56,9 % dan ko'proq qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'ri keladi.

Qozog'iston er resurslari va ularning ko'lam MDH bo'yicha eng katta. Ayniqsa foydalanadigan va ishlov beriladigan (haydaladigan) erlar hajmi, ularning aholi jon boshiga to'g'ri kelishiga ko'ra eng yaxshi sharoitga ega. Masalan,

xaydaladigan erlar aholi jon boshiga MDHda o'rtacha 1,3ga, O'zbekistonda 0,2ga to'g'ri kelgani holda, Qozog'istonda 2,2 ga dan to'g'ri keladi.

Respublikada dehqonchilik rayonlari asosan shimoliy, shimoli-g'arbiy, sharqiy hududlarni va janubda tog' etaklarida o'zlashtirilgan yerlarda mavjud. Jami dehqonchilik qilinadigan yerlar 2005 yil ma'lumoti bo'yicha 18 mln ga-ni tashkil etdi.

Transporti va tashqi iqtisodiy aloqlari.

Qozog'istonning transport va kommunikatsiya tarmoqlarini suv transporti, temir yo'l, avtomobil', havo, quvur yo'llari va telekommunikatsiya tashkil etadi. Tarmoqning tarkibiga o'nlab yirik davlat va hususiy korxonalar kiradi.

Transport va kommunikatsiya tarmog'i xizmat ko'rsatadigan yirik korxonalar "Qozog'iston temir yo'llari", "Qozoqavtoyol" yopiq aksiyadorlik jamiyati, "Kazaeroaviatsiya", Atsana va Almati aeroportlari, Aqtau va Bautino dengiz savdo portlari, "Qozoqtelekom" ochiq aksiyadorlik jamiyati va. b. Bu korxonalarda 420 ming ishchi va hizmatchilar mehnat qiladi.

Qozog'iston asosan quruqlik respublikasi bo'lgani uchun jami tashiladigan yuk va yo'lovchilarning 97% dan ko'pini quruqlik transporti tashiydi. SHu jumladan yo'lovchilarning 85 % ga yaqini avtomobil', 11,4 % temir yo'l, 2,9 % i havo transportlarida amalga oshirilmoqda. Tashiladigan yuklarning 57,5 %- i temir yo'l, 27 %-i quvur yo'llari, 15,5 %- i avtomobil' yo'l transportlarida amalga oshirilmoqda.

Temir yo'l transporti XX asr boshlarida Orenburg-Toshkent, Aris-Lugovaya, Janubiy Transibir (Petropavlovsk orqali) magitsral yo'llarining birin ketin ishga tushirilishi bilan paydo bo'ldi. Keyinchalik esa Semipalatinsk – Lugovaya (Turksib), G'arbiy Qozog'istondagi yo'llar, meridional yo'nalishdagi Petropavlovsk – Chu magitsral temir yo'llar qurilishi amalga oshirildi. Kelajakda Qizilo'rda – Jezqazg'on – Uskemen – Shar tsantsiyalari bir – biri bilan tutushtiriladi. Hozirgi vaqtda respublika hududida 14,5ming km uzunlikdagi temir yo'llar xo'jalikka xizmat qilmoqda. Qozog'iston temir yo'l magitsralining har 1000 km²-ga zichligi 5,3 km-ga teng.

Avtomobil' transporti eng ommaviy yuk va yo'lovchilar tashish tarmog'idir. Avtomobil' yo'llarning umumiy uzunligi 115ming km bo'lib, shundan 88,9 ming km asfal'tlangan. U respublikaning barcha rayonlarida keng tarqalgan. Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar 12,4 ming km-ni tashkil etadi. Bu tarmoqning muhim ahamiyati uning respublika ichki rayonlarini bir – birlari bilan bog'lashidadir. Mamlakatda xalqaro yo'nalishda tranzit avtomobil' yo'llari o'tgan. Ular Evropa va Rossiyaning O'rta Osiyobilan bog'laydi. Almati – Atsana avtomobil' yo'li xalqaro tsandartka mos qayta qurildi. Bu yo'l orqali tranzit yuklar Rossiyadan Xitoyga va shuningdek Qozog'istonni Qirg'iztson, Pokiston orqali Hinditson bilan birlashtiradi.

YAqinda Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iztson, Xitoy davlatlari orasida Qoraqurum tosh yo'li orqali Almati – Karachi orasini avtomobil' yo'li bilan tutashtirish g'oyasi tadbiriq etildi. Uni qurishga Pokiston 500 mln AQSH dollarini ajratdi.

Quvur transporti Qozog`istonda tashiladigan yuklar hajmiga ko`ra uchinchi o`rinni egallaydi. Unda asosan neft va neft mahsulotlari tashiladi. Uning umumiy uzunligi 6 ming km dan ortiq bo`lib, G`arbiy Qozog`iston neftini Rossiyaning Orsk, Saratov, Samara neftni qayta ishlash korxonalariga va aksincha G`arbiy Sibir` neftini Pavlodar va CHimkent neftni qayta ishlash zavodlariga etkazib beradi.

Suv transportlari orasida daryo transporti muhimidir. Foydalanish imkoniyati mavjud bo`lgan 6 ming km-li suv yo`li bor. Asosiy suv arteriyasi Irtish daryosidir. Zaysan ko`lidan boshlangan bu daryo bo`ylab 1750 km masofada kemalar xilma – xil yuklar tashiydi. Shunday ishlar Ural daryosida (1100 km) ham qisman amalga oshiriladi. Daryo suv yo`lida 6-ta asosiy portlar mavjud.

Dengiz transporti Qozog`iston xududida faqat Kaspiy dengizida faoliyat ko`rsatadi. Kaspiy dengizining Qozog`iston xududidagi qirg`oq bo`ylari 2300 km dan ortiqroqdir. Undagi Oqtov, Bautino, Eraliev portlari orqali Qozog`iston o`z iqtisodiy aloqalarini Ozarbayjon, Turkmaniston respublikalari hamda Rossiyaning Shimoliy Kavkaz va Volga bo`yi rayonlari bilan olib boradi. Bu portlardan yiliga 1,5 mln t quruq va 8 mln t suyultirilgan mahsulotlar tashiladi.

Qozog`istonda havo yo`llari kompaniyalarining ko`shni va xorijiy davlatlar bilan xalqaro ahamiyati bor aloqa yo`llari shakllangan. Qozog`istonda 51ta aeroport mavjud, ularning 21-tasi respublika ahamiyatiga ega. Otsona, Almati va oblats markazlaridagi aeroportlar xalqaro samolyotlarga hizmat ko`rsatadi. Qozog`istondagi 19-ta xorijiy havo kompaniyalarining 9-si uzoq xorijga yuk tashishni amalga oshiradi.

Savollar

1. Qozog`iston Respublikasining tashkil topishi, kattaligi, IGO` hususiyatlarini aniqlang.
2. Qozog`istonning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari qanday hususiyatlarga ega?
3. Qozog`istonning aholisi va mehnat resurslari ko`rsatkichlarini tahlil qiling.
4. Hozirgi davr xo`jaligining asosiy hususiyatlarini aniqlang.
5. Sanoatning asosiy tarmoqlarini tahlil qiling.
6. Qozog`istonning transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari qanday rivojlangan?

5-mavzu Qirg`iziston Respublikasi

Reja

1. **Tabiiy sharoiti va boyliklari**
2. **Aholisi**
3. **Xo`jaligi va transporti**

Qirg`iziston hududi inson madaniyatining qadimgi o`choqlaridan biri hisoblanadi. Hududda tosh davrida odamlar yashaganligi ma`lum. Miloddan ilgari 3-ming yillik oxiri, 2-ming yillikning boshlarida mis va bronzadan yasalgan qurollar topilgan.

Qirg`iz xalqining shakllanishida Janubiy Sibir va Markaziy Osiyoning katta qisimlarida yashagan juda ko`p elat, urug` va qabilalar qatnashgan. Hududda datslabki davlat miloddan avvalgi 2-asrga to`g`ri keladi. Sanog`imizdan oldingi 2-

8-asrlarda g'unnlar (xunnlar) taqibidan xolos bo'lish uchun qirg'izlarning bir qismi Enisey va Baykal ko'li hududlariga borib joylashishgan. O'sha erlarda o'zlarining birinchi davlatlarini va qirg'iz qag'anatini barpo etishgan. Madaniyati shakllangan, yozma ijodi vujudga kelgan. "Manas" xalq eposida qadimgi qirg'izlarning tarixiy voqealari, anana va turmush tarzi saqlanib qolgan.

5-asrda atsa-sekin o'tloq yashashga moslashib bordilar. Qirg'iz urug'lari Tyanshanga kelib joylasha boshladilar. Sayxali Tosh darasidagi qoya toshlardagi tasvirlar, Bo'ron minorasi va O'zgandagi arxitektura majmuasi qirg'izlar madaniyatining yuqori darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

10-asrning boshlanishiga qadar buyuk qirg'iz xonligi Janubiy Sibir, Mo'g'uliston, Baykal, Irtishning yuqori qismini, Qashg'arning ma'lum qismini, Issiqko'l va Talasni o'z qaramog'iga qo'shib olgan edilar. Qirg'iz xonligining taraqqiy etishi nafaqat bosib olish ishlari bilan, balki savdo-sotiq ishlarini Xitoyliklar, tibetliklar, Janubiy Sibir hamda O'rta Osiyoxalqlari bilan birgalikda olib bordilar.

11-12-asrlarda Qirg'izlarning qaramog'idagi joylar qisqarib bordi. Biroq bu xol ular etnik mutsaqilligini saqlashga va shu xalqqa moyil etnik guruhlarining jipslashuviga sabab bo'ldi. Qirg'iz etnogenezining oxirgi bosqichi mug'ullar, ayrotlar, nayman va boshqa xalqlarning aralashuvi bilan bog'liq.

18-asrgacha Enisey qirg'izlari Oltin O'rda, keyinchalik Ayrot va Jung'oriya xonliklari qaramog'ida bo'ldilar. Ularning ko'pchiligi Tyanshanga kelib joylasha boshladilar. Umuman olganda, 16-asrda qirg'iz xalqi etnogenezi shakllanib bo'lgan edi.

1863 yilda Shimoliy Qirg'iziston, 1876 yilda Janubiy Qirg'iziston Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olingan.

XIX asr o'rtalaridan so'ngi choraklarigacha avval SHimoliy Qirg'iziston, so'ngra esa Janubiy Qirg'iziston chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi. 1924 yilda O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilishi natijasida 1924 yil 14 oktyabrda RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz avtonom oblatsi tashkil etildi. 1925 yil 25 mayda Qoraqirg'iz avtonom oblatsi Qirg'iz avtonom oblatsi, 1926 yil 1 fevraldan Qirg'iziston ASSRga, RSFSR tarkibida tashkil qilindi. 1936 yil 5 dekabrda sobiq ittifoqning yangi Kontsitutsiyasi qabul qilinishi munosabati bilan Qirg'izistonga ittifoqdosh respublika (QSSR) maqomi berildi.

Qirg'iziston Respublikasi o'z milliy mutsaqilligani MDHda eng birinchilardan bo'lib e'lon qildi (30.VSH.1991y.). Jahon siyosiy xaritasida o'ziga xos yangi bir suveren davlat yuzaga keddi.

SHunday qilib, suveren Qirg'iziston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon hamjamiyatida teng xuquqli demokratik davlat sifatida shakllanmoqda. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti, ko'plab dunyoviy siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy jamiyatlar, tashkilotlar, uyushmalarga a'zo. Uni jahonning yuzlab mamlakatlari mutsaqil davlat sifatida tanidi.

Hozirga Qirg'iziston Respublikasi ma'muriy-hududiy tarkibida Issiqko'l, Norin, O'sh, Jalolobod, Chuv, Talas va so'nggi vaqtlarda tashkil etilgan Batkent oblatslari mavjud. Poytaxti Bishkek (avvalgi Pishpek, Frunze) shahridir,

Qirg'iziston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining janubi-sharqiy qismida joylashgan. U dunyoning taniqli tog'li davlatlari qatoridan o'rin oladi. Ana shu xususiyatlar Qirg'izistonning iqtisodiy geografik o'rni (IGO')ni belgilaydi. Respublikaning IGO' nisbatan noqulay. Uning noqulayliga avvalo baland tog'li rel'efi bilan bog'langan. Shunga ko'ra Qirg'iziston xududini bironta tranzit transport yo'llari kesib o'tmaydi, ya'ni temir va avtomobil' yo'llari respublika kirib keladi, ammo undan nariga chiqib ketmaydi, bu birinchidan. Ikkinchidan, yana o'ta baland Tyan-shan tog'lari sababli Shimoliy Qirg'iziston bilan Janubiy Qirg'iziston rayonlari o'zaro iqtisodiy aloqalarni temir yo'l orqali faqat Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston davlatlari osha bora oladi. Bu holatlar, tabiiyki, bu respublika iqtisodiyoti rivojlanishida katta muammolarni keltirib chiqaradi. IGO'ni birmuncha qulaylashtirish imkoniyatlari hozirgi vaqtda qurilish ishlari boshlab yuborilgan Andijon–O'sh–Ergashtom–Qashg'ar xalqaro magistral avtomobil' yo'li va qurilishi rejalashtirilayotgan SHimoliy va Janubiy Qirg'istonnı bog'lovchi Tyan'shan tog'lari osha tonnellar va boshqa murakkab yo'l inshootlarini qurish orqali o'tkaziladigan transport yo'lagini yaratish tufayligina amalga oshirilishi mumkin. Ana shunda respublika IGO' ma'lum darajada qulaylashadi.

Qirg'izistonning umumiy maydoni 198,5 ming km² bo'lib mintaqada to'rtinchi, MDHda ettinchi va jahonda sakson oltinchi o'rinlarni egallaydi. Aholisining soni 5,2 mln kishi (2006y.). Bu ko'rsatkich bo'yicha u mintaqada oxirgi, MDHda 10, va jahonda 108 o'rinni egallaydi. Respublika shimolda Qozog'iston, sharqda Xitoy, janubda Tojikiston va g'arbda O'zbekiston respublikalari bilan chegaradosh, chegaralari asosan baland tog'larning so'v ayirg'ichlari orqali o'tadiki bu holat xatto qo'shni davlatlar bilan aloqa qilishni ham murakkablashtiradi, bundan ma'lum darajada O'zbekiston va Qozog'iston chegaralari mutsasno.

Tabiiy sharoiti. Qayd qilinganidek rel'efi ancha murakkab. Uning hududida minimal balandlik tog' oldi adirliliklarida 400 m dan maksimal balandlik 7439 m (Pobeda cho'qqisi) gacha tebranadi. Uning balanddigi 1000m gacha bo'lgan qismi 10% hududini, 1000-3000 m gacha bo'lgan qismi 60 % hududini va 3000 m dan baland bo'lgan qismi hududining 30 % ni tashkil qiladi.

Iqlimi mo'tadil tog' iqlimi hususiyatiga ega. Vodiylar va tog' oldi adirliliklarida yanvar oyi o'rtacha t° si -15°dan -8° gacha. Iyul' oyining o'rtacha t° si + 5°+27° orasida, YOg'in miqdori vodiylarda o'rtacha 200-400 mm dan tog'li hududlarda 700-1000 mm orasida farqlanadi. Respublikaning agroiklim imkoniyatlari dehqonchilik ishlarini to tog'larning 2000-2400 m li yonbag'irlarigacha olib borishga imkon beradi.

Tabiiy resurslari. Tabiiy resurslari xilma-xil. Ular orasida tabiiy mineral resurslar alohida iqtisodiy ahamiyatga molikdir. yer otsi qazilma boyliklarining muhim turi ularning yoqilg'i-energetika mineral boyliklaridir. Unda ko'mir boyligi katta zahiralarda va xilma-xillikda mavjud. Respublikada ko'mirning geologik zahirasi 31 mlrd t.ni tashkil qqladi. Boshqacha ayttanda, ko'mir zahiralariga ko'ra Qirg'iziston Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Unda yuqori sifatli toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir zahiralari deyarli baravar nisbatda uchraydi.

Respublikada neft' va gaz konlari faqat Janubiy Qirg'izistonning Moylisoy rayonida mavjud va ancha kam quvvatlidir. Qirg'izistonning eng qimmatli energetika resursi daryolaridagi gidroenergetika quvvatlaridir. Norin, Qoradaryo, Talas kabi daryolari va ularning irmoqlari ancha katta gidroenergiya zahiralariga ega. Ayniqsa Norin daryosi bu borada katta imkoniyatga ega. Umumiy gidroenergetika zahiralariga ko'ra Qirg'iziston mintaqada Tojikistondan keyin 2-o'rinni egallaydi va uning zahirolari mintaqada gidroenergetika potentsialining 30 %ga to'g'ri keladi. Norin daryosi esa Vaxsh va Panj daryolaridan keyin 3 o'rinda turadi. Shuningdek, Qirg'izistonning metall rudali mineral boyliklari ham katta. U simob (Haydarkon), sur'ma (Qadamjoy) zahiralariga ko'ra MDHda eng yuqori o'rinlarni egallaydi, polimetl (Sumsar), oltin (Qumtor), alyuminiy xom ashyolari kabi boyliklar ham ahamiyatli. Kimyoviy mineral resurslardan turli tuzlar, qurilish materiallari (tsemit, xom ashyolari, marmar kabilar)ga ham ancha boy.

Respublikaning muhim tabiiy boyliklari qatoriga boy o'simlik qoplami ham kiradi. Ayniqsa uning o'rmonlari noyob xususiyatlarga (Farg'ona tizmasi g'arbiy yonbag'rlaridagi relikt yong'oqzor o'rmonlari) ega bo'lib respublika hududining 3,3 %ni qoplab yotadi. Bundan tashqari uning baland subal'p, al'p yaylovlari ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Bunday o'tloqlar respublika hududining 50% dan ko'prog'ini egallaydi.

Rekreatsiya resurslari respublikaning yana bir katta iqtisodiy mavqeiga ega bo'lgan tabiiy boylik turidir. Toza havoli, dilbar ko'rinishli tog' landshaftlar, baland tog' ko'llari Issiqko'l, Sarichelak kabilar, tez oqar daryo va soylari, shifobaxsh mineral suv va balchiqlari birgalikda, darhaqiqat, katta boylikni tashkil qiladi. Ularning asosida ko'plab serdaromad tomosha bog'lar, dam olish va davanish maskanlari tashkil qilish, tog' turizmi va sportini keng rivojlantirish mumkin. Bu sohani rivojlantirish ayniqsa hozirgi mutsaqillik yillarida respublikaning valyuta tushumini kupaytirishi mumkin.

Aholisi va mehnat resurslari. 2006 yil ma'lumotiga ko'ra Qirg'iziston Respublikasi nng aholisi 5,2 mln kishini tashkil etdi. 1913 yilda respublika hududida 1 mlndan kam aholi qayd qilingan. Demak, shu yillar davomida aholi soni 5 baravar ko'paygan. 60-yillar boshlarigacha Qirg'izistonda aholi tabiiy ko'payish va ko'chib keluvchilar hisobiga ancha tez o'sdi. Keyingi davrlar davomida tug'ilishning va ko'chib keluvchilarning kamayishi hisobiga aholining o'sish sur'atlari sekinlashib bordi. Buning ko'p hollarda asl sababi respublika aholisining milliy tarkibida ko'riladi.

Aholisi milliy tarkibining asosiy xususiyatlaridan biri, xuddi qo'shnisi Qozog'istonga o'xshash, unda evropalik millat vakillari, birinchi navbatda ruslar hissasining kattaligidir. So'nggi davrlar davomida respublika aholisi tarkibida qirgiz va rus millatlari hissasining o'zgarib borishi ma'lumotlarini keltiramiz: 1959 yilda aholi ro'yxati ma'lumotlarita ko'ra qirg'izlar hissasi 40 %, ruslar hissasi esa 29,8 % edi. Bu kursatkichlar 1970 yilda o'z navbatida 43,8 % va 29,2 %, 1979 yilda esa 48 % va 25 % , 2000 yilda 64,6 % va 12,5 %ga teng bo'ldi. SHuningdek, o'zbeklar 16%, ukrainlar va nemislar har birining hissasi 1 % ni tashkil qiladi. SHu bilan birga qozoqlar, tojiklar, uyg'urlar, dunganlar, yahudiylar, tatarlar va boshqa millat vakillari aralash yashaydi. Qirg'izistonda yashayotgan yirik milliy

guruhlardan ruslar asosan SHimoliy Qirg'izistonda, o'zbeklar esa Janubiy Qirg'izistonda (ular o'z hududlarida jami aholining 1/3 qismiga yaqinini tashkil qiladi) joylashganlar.

Respublika aholisi ancha notekis joylashgan. Har 1 km² maydonga o'rtacha 26 kishidan to'g'ri kelgani holida, aholi eng zich yashaydigan Farg'ona va CHu vodiylarida (respublika aholisining bu hududlarda 3/4 qismi yashaydi) bu ko'rsatkich 100-150 kishiga, Farg'ona vodiysining intensiv dehqonchilik rayonlarida esa 150-200 kishiga to'g'ri keladi. Asosiy aholi manzilgohlari dengaz yuzasidan 1500 m gacha bo'lgan balandliklardagi tog' oralig'i vodiylarida joylashgan. Undan baland hududlarda aholi zichligi keskin pasayib boradi va hududining 1/3 qismini tashkil qilgan baland tog' rayonlarida aholi deyarli yashamaydi.

Urbanizatsiya darajasi ko'pchilik O'rta Osiyo davlatlariga o'hshash unchalik yuqori emas (38%). Eng yirik shaharlari Bishkek (600 ming kishi) va O'sh (226 ming kishi), qolgan shaharlari o'rta va kichik shaharlar guruhiga kiradi.

Xo'jaligi. Qirg'iziston Respublikasi ning hozirgi xo'jaligi agrar-industrial xarakterga ega. SHu bilan birga uning xo'jalik majmuasi tarkibi va rivojlanishi xususiyatlari boshqa O'rta Osiyorespublikalaridan ko'p jihatdan farq qiladi. YAlpi milliy mahsulotda sanoat 20,5 %, qishloq xo'jaligi 38,4 %, xizmat ko'rsatish tarmog'i 12 %, savdo 10,1 %ni tashkil etadi.

Sanoati. Sanoati asosan urush va undan keyingi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlandi. Sanoatining o'ziga xos tomoni (ixtisos) shundaki, unda Qozog'iston, Turkmanistondagidek undiruvchi tarmoqlar emas, balki ishlov beruvchi tarmoqlar utsunroq rivojlangan. Sanoatining etakchi tarmoqlari: mashinasozlik (qishloq xo'jalik mashinalari, metal kesuvchi tsanoklar, elektrotexnika buyumlari, priborlar va boshq.), rangli metallurgiya (simob, surma va qo'rg'oshin-ruh rudalarini qazib olish va boyitish), neftni qayta ishlash, yengil (ip-gazlama, jun, ipak matolari, trikotaj, ko'n-poyabzal, tikuvchilik buyumlari i.ch., gilam to'qish), oziq-ovqat (go'sht-sut, un-yorma va b.) sanoati.

Qishloq xo'jaligi. Qirg'iziston O'rta Osiyomamlakatlari orasida paxtachilik majmuasining hissasi patsligi bilan ajralib turadi. Jumladan, 2005 yilda respublika bo'yicha atigi 70 ming tonna paxta hosili yig'ib olingan. Amalda bu hajmdagi paxtani O'zbekistonning bitta tumani berishi mumkin. Buning asosiy sababi respublikaning tabiiy agroiklim sharoiti bilan bog'liq. Shu asosda uning dehqonchilik tarmoqlari shakllangan. Respublikada qishloq xo'jaligi uchun yaroqli erlar maydoni 10,6 mln. gektar (mamlakat hududining 50,9 %). 1 mln. gektar er sug'oriladi. So'ngga yillarda ekin maydonlari dehqonchilik tarmoqlari o'rtasida quyidagacha teqsimlanmoqda (jami ekin maydonlariga nisbatan % hisobida) donli ekinlar - 55,9 %, texnika ekinlari - 11,8 %, kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari - 11,1 % va yem-xashak ekinlari 22,2 %.

Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Qirg'izistonning yuk oboroti bo'yicha eng yirik tarmog'i temir yo'l transportidir. Uning hissasiga jami tashilgan yuklarning 64 % to'g'ri keladi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 400 km ga yaqin bo'lib, O'rta Osiyorespublikalari orasida u eng qisqadir. Ayniqsa Qirg'izistonning davlatlararo yuklarini tashishida bu tarmoqning ahamiyati katta.

Ichki rayonlararo yuk tashishda asosan avtomobil' transporti etakchilik qiladi. Respublika hududi tog'li va temir yo'l transporti asosan aylanma yo'llar orqali harakat qiladigan bo'lganligi uchun jami yuk oborotida uniig hissasi nisbatan yuqori (31%). Yuklarning asosiy qismi asosan yoz oylarida SHimoliy va Janubiy Qirg'iziston rayonlari o'rtasida tashiladi.

Suv transporti asosan Issiqko'l doirasida, ko'proq Baliqchi va Qorako'l shaharlari orasida yuk tashish ishlarini amalga oshiradi. Shu sababli uning imkoniyatlari ancha cheklangan.

Havo transportining ahamiyati esa tabiatining tog'lilik xarakteri tufayli ancha yuqori. U respublikaniig baland tog'li rayonlarini bir-biri bilan bog'lashda va xalqaro aloqalarni samarali tashkil etishda katta xizmat qilmoqda.

Qirg'izistonning tashqi iqtisodiy aloqalar mutsaqillik yillarida har taraflama rivojlanib bormoqda. Respublikaning iqtisodiy aloqalari so'nggi yillarda tobora ko'proq jahonning boshqa davlatlari, birinchi navbatda turli rivojlangan davlatlari bilan olib borilmoqda. Eksportga asosan mineral boyliklar kontsentratlari, go'sht-sut mahsulotlari, jun va teri, tamaki, qisman shakar, sabzavot va mevalar, xashak presslash mashinalari, elektr lampochkalar va boshqalarni chiqarmoqda. Import mahsulotlari sifatida asosan sanoat korxonalari uchun texnologik jihozlar, kimyoviy vositalar, metall, yoqilg'i-moylash vositalari, tabiiy gaz, ayrim turdagi yengil va oziq-ovqat boshqa davlatlardan keltiradi. Ko'rinib turibdiki, respublika eksportida asosan xom ashyo mahsulotlari, importida esa itse'molga tayyor og'ir va yengil sanoat mahsulotlari ko'proq qatnashmoqda.

Savollar

1. Qirg'iziston nima uchun O'rta Osiyo Shvetsariyasi nomini olgan?
2. Qirg'iziston Respublikasining kattaligi, chegaralari, IGO'ni ko'rsatkichlarini qancha?
3. Qirg'iziston xalqining shakllanashi, demografik xususiyatlari va hududiy joylashish ko'rsatkichlari darajasi?
4. Respublika tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining muhim tomonlarini aniqlang?
5. Qirg'izistonning asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari xususiyatlari va geografiyasini izohlang?

6-mavzu. Tojikiston Respublikasi

Reja

1. **Tabiiy sharoiti va boyliklari**
2. **Aholisi**
3. **Xo'jaligi va transporti**

Tojikistonning ma'muriy-siyosiy tarkibida Tog'li Badahshon avtonom respublikasi, So'g'd, Xatlon oblatslari va respublika markaziga bo'ysunadigan Hissor vodiysi tumanlari bor. Tojikistonning siyosiy ijtimoiy markazi Dushanbe shahri bo'lib, unda 600 000 aholi yashaydi.

Respublikaning umumiy maydoni 143,1 ming km² bo'lib, u Markaziy Osiyoda eng kichik, MDHda 8 chi va jahonda 91chi o'rinda. Aholisn 7,3 mln kishi (2006 y.),

bu ko'rsatkich bo'yicha mintaqada 3 chi, MDHda 6 chi va jahonda 95 o'rinda turadi.

Tabiiy sharoiti. Tabiiy sharoitining xususiyatlari asosan uning rel'efi bilai uzviy bog'langan. U qo'shnilari Qirg'iziston, Xitoy va Afg'oniston bilan baland tog'lar va yon bag'irlari juda tik daralar hamda daryolar bilan chegaradoshki, shu tufayli ana shu qo'shinlari bilan hozirgi vaqtda Tojikistonning iqtisodiy aloqalari to'g'ridan to'g'ri deyarli olib borilmaydi. Uning jahonga chiqish imkoniyatlari faqat O'zbekiston orqalig'ina olib borilmoqda.

Ana shu holat Tojikistonning asosan rel'efi bilan bog'liq. Respublikaning rel'efi qanday xususiyatlarga egaligini mashhur iqtisodiy geograf A. N. Rakitnikov juda aniq ifodalaydi. Uning ta'rifi quyidagicha mazmunga ega: "O'z xududlarida agar qirg'izlar ot-ulovda yura olsalar, tojiklar yayov yurishlariga to'g'ri keladi" Boshqacha aytganda, Tojikistonning tog'lari shu qadar tik, yonbag'rlari keskin, ular bo'ylab yurishda hatto ot-ulov ham ish berishi qiyin.

Umuman, respublika hududini asosan Pomir va Oloy tog' tizimlariga qarashli Markaziy Osiyodagi eng baland tog'lar egallab yotadi. Balandligi tufayli «Dunyo tomi» nomini olgan Pomir tog'lari bular orasida eng ulkani (7495 m) hisoblanadi. Faqat Janubiy va SHimoliy Tojikistondagina balandligi 350-800 mm gacha bo'lgan nisbatan tekis tog' oldi adirlklari va tog' oralig'i vodiylari uchraydi. Aholi asosiy faoliyat ko'rsatadigan bunday hududlar respublika umumiy maydonining atiga 7-8 % ni tashkil qiladi. O'rtacha balandliga 3000 m dan yuqori bo'lgai hududlar esa jami maydonining yarmidan ko'pini egallaydi. Tabiiyki, ana shu blandlikda aholi deyarli yashamaydi. Geologik holatiga bog'liq muhim xususiyatlaridan biri undagi intensiv seysmiklik darajasidir. Tez-tez bo'lib turadigan zilzilalar, surilma va tog' ko'chishlari iqtosidiyotga ancha zarar keltiradi.

Janubiy Tojikistonning tekisliklarida asosan iliq. Yozi issiq va davomli, o'rtacha $t^{\circ} +28^{\circ} -30^{\circ}$, qishi esa $+1^{\circ}$ atrofida tebranadi. Quruq subtropik iqlimli hududlardan hisoblanadigan bu qismida eng issiqsevar dehqonchilik ekinlari ekiladi. Tog'larda esa balandlikka ko'tarilgan sari yozu - qishda 1° pasayib, yog'in miqdori esa kamayib boradi. Jumladan, yog'in miqdori baland adirlklarda 400-600 mm dan SHarqiy Pomirning yuqori balandliklarida 60 mm gacha boradi. SHu sababli, ko'p sonli yirik doimiy tog' muzliklari, bular orasida dunyoda eng yirik Fedchenko muzligi, shu tog'larda joylashgan. O'z navbatida, ular nafaqat Tojikistonda, balki O'rta Osiyoning boshqa respublikalarida obi-hayot vositasi hisoblanadigan asosiy dar'elar (Amudaryo va uniig irmoqlari)ning manbailari hisoblanadi.

Tabiiy resurslari. Qo'shnisi Qirg'azistonga o'xshash Tojikistonning eng ahamiyatli tabiiy boyligi bo'lib, uning gidroenergetika resurslari hisoblanadi. U jami energetika quvvatlari zahirasi hajmiga ko'ra Rossiyadagina ortda qoladi. Maydoni eng kichik bo'lishiga qaramay Tojikiston hissasiga jami O'rta Osiyorespublikalari, asosiy yirik daryolari, gidroenergiya zahiralar (300 mlrd. kVt/B) ning 60 % dan ko'prog'i to'g'ri keladi. Tabiiyki, bu nihoyatda katta ko'rsatkich. Ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda bu ko'rsatkichning atigi 5 % dan ko'prog'igina o'zlashtirilgan xolos. Asosiy manbalari Panj, Vaxsh, Zarafshon xisoblanadi.

Mineral resurslarning barcha guruhlari respublikada uchraydi. YOqilg'i mineral resurslar orasida qo'ng'ir ko'mir konlari ko'proqdir. Ular orasida SHO'rob (qo'ngir ko'mir), Fan-YOngob (toshko'mir) konlari ancha ahamiyatli. Neft' konlari faqat Quyi Vahsh vodiysida va Konibodom rayonlarida topilgan. Lekin ular ancha kam quvvatli konlardir. Muhim qazilma boyliklaridan polimetall, vol'fram, sur'ma, oltin, nefelin, qalayi, turli tarqonq rangdor metallar hisoblanadi. SHulardan, SHimoliy Tojikistondagi Qoramozor polimetal va Janubiy Tojikistondagi Takob polimetal konlari hozirga vaqtda xalq xo'jaligida foydalanilmoqda. Respublikada hozirgi vaqtgacha 28 ta oltin koni ochilib foydalanilmoqda. Eng asosiylari Shimoliy Tojikistonda Djilau, Taror, Zarafshon vodiysida Chore, Shoxbas Kum-Manor konlarida katta ishlar olib borilmoqda. SHimoliy Tojikistonning "Qoyali" surma koni MDH dagi 50 % surma zaxirasiga ega. So'g'd oblatsida surma va simobdan tashqari 214 ta boshqa turdagi foydali qazilmalar mavjud, ularning qatorida: qurg'oshin-ruh(16ta koni), mis va vismut (3ta), vol'fram va molibden (1ta), tsrontsiy (2ta), temir (3ta), oltin (15ta), kumush (7ta), toshko'mir (11ta), neft-gaz (11) va boshqa konlar mavjud. Respublika kimyoviy mineral resurslardan tuzlarga ancha boy. Xatlon oblatsidagi Mo'minobod tosh tuzi koni Markaziy Osiyodagi eng yiriklardan biridir. Mineral qurilish materiallari geografiyasi juda keng va xilma-xildir. Bular orasida tsement, oyna xom ashyolari, pardoqlash materiallari, qadimdan dong taratib kelayotgan nodir rangdor la'li toshlari ("La'li Badaxshon") alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, Tojikiston xilma-xil rekreatsiya resurslariga ham ancha boy: minerallashish darajasi juda xilma-xil issiq (+ 38 gradusdan 96 gradusgacha) yoki sovuq mineral suvlar, davolash balchiqlari ming bir dardga davo. Nihoyat, o'ziga xos o'rmon, o'z o'simlik qoplamiga ega tog' landshaftlari, toza havo, tez oqar daryo va soylar uziga tog' turizmi ishqibozlari, alpinitlarni ko'plab tortishi turgan gap. Agar ularning xalqaro doiradagi ahamiyatini xisobga olsak, respublika iqtisodiyotida kelgusida muhim o'rin tutishini tushunish qiyin emas.

Aholisi va mehnat resurslari. Tojikiston respublikasi aholisi MDH davlatlari orasida XX asr davomida son jihatdan eng ko'p o'sishga erishdi. So'nggi yuz yil orasida u 6,5 baravarga o'sdi. 2006 yil boshida respublika aholisining umumiy soni 7,3 mln kishini tashkil qildi (1989 yilda 5,2 mln kishi edi). Aholining muhim demografik xususiyatlaridan biri tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining mintaqada eng yuqori ekanligidir. Jumladan, har ming kishiga tug'ilish 2005yilda 26,8, o'lim 4,4 va tabiiy ko'payishi 22,4 kishini tashkil qildi.

Tojikistonda tabiiy o'sish ko'rsatkichlarining yuqori xolda kelayotganiga aholining milliy tarkibi ham sababchidir. 2000 yilda respublika aholisining 79,9 % ni tojiklar, 15,3 % ni o'zbeklar, 1,1 % ni ruslar, 1,1 % ni qirg'izlar, qolganlarini boshqa millat vakillari (rasmiy ma'lumotlarga qaraganda respublikada 55 millat vakillari yashaydi, bu mintaqada eng pats ko'rsatkichdir) tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, Tojikiston aholisining 97 % ga yaqini mahalliy millat vakillaridan iborat va ularda tabiiy o'sish ko'rsatkichlari an'anaviy ravishda yuqoridir. Aholining o'rtacha zichligi har bir km² 43 kishini tashkil qiladi. Ammo uniig 85 % respublika umumiy hududining 1/10 qismida yashaydi. Aholi zich yashaydigan Shimoliy Tojikistonning vodiy qismida o'rtacha zichlik 100-150 kishini, Hisor va Vahsh

vodiylarida zsa 30-100 kishini tashkil qiladi. Aksincha eng siyrak ko'rsatkichli hududlariga Tog'li Badaxshon to'g'ri keladi. Unda aholining o'rtacha zichligi har 1 km² bir kishini tashkil qiladi. Aholining urbanizatsiya darajasi ham ancha pats, respublika aholisining 27,4 % shaharlarda yashaydi (2000y). Jami 19 shahar va 48 shaharchalari bor. Eng yirik shahri respublika poytaxti xisoblanadigan Dushanbe shahridir, unda 600000ga yaqin aholi bor. Xo'jand shahrida 160000 aholi bor. Boshqa shaharlarda aholi 100000dan kam, ular o'rta va kichik shaharlardir.

Tojikistondagi demografik xolat aholisining 50 % dan kamrog'ining mehnat resurslaridan iboratligini ta'minlagan. Aksincha unda mehnat yoshigacha bo'lgan yoshdagilar hissasi ancha kattadir. Jami mehnatda band bo'lganlarning 20 % gina sanoatda va 46,8 % qishloq xo'jaligida (mintaqada eng yuqori) ishlaydi. Umuman respublika mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlangan.

Xo'jaligi. Tojikiston xalq jo'jaligi agrar-indutsrial xarakterga ega. Umuman unda hozirgi zamon iqtisodiyot, ayniqsa, sanoat tarmoqlari asosan so'nggi chorak asr davomida tarkib topdi. Hozirga vaqtda Respublikada 90 dan ziyod sanoat tarmoqlari tashkil qilingan bo'lib, ularning 400dan ortiq yirik korxonalari (bularga bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida tashkil qilingan korxonalar kirmaydi) respublika iqtisodiyotiga xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Tojikistonda yuzaga kelgan siyosiy - ijtimoiy vaziyat, respublika iqtisodiyotining rivojlanishida katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Aytish lozimki, u ko'p sohalar bo'yicha oldingi ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridan nihoyatda orqada qolib ketdi. Xorij invetsitsiyalari Respublikadagi notinchlik sababli ma'lum muddat kirib kela olmadi, yangi ishlab chiqarish munosabatlari kengroq tarqalmadi. Bularning barchasi respublika iqtisodiyotini ko'p yillarga orqaga surib tashladi. Hozirgi paytda o'zi etishtirgan xom-ashyoni chetga chiqarmasdan, o'z hududida qayta ishlaydigan yangi korxonalar qurilishiga katta e'tibor bera boshlandi.

Sanoati. 2000 yil ma'lumotiga ko'ra respublika milliy daromadining 35 % dan ko'prog'ini sanoat tarmoqlari berdi. Sanoatining tarmoqlar tarkibi (ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati, foiz hioobida) quyidagicha; yoqilg'i-energetika - 16,2 %, metallurgiya-17,0 %, kimyo va neft - kimyo-3,0 %, qurilish materiallari, chinni va oynasozlik-2,6 %, yog'ochni qayta ishlash za tsellyuloza- qog'oz-0,9 %, yengil sanoat-36,2 %, oziq-ovqat sanoati-12,5 %. Boshqacha aytganda, Tojikistonda boshqa respublikalarga nisbatan aholi itse'moli mahsulotlari ishlab beruvchi yengil va oziq-ovqat sanoatlarining hissasi ancha yuqori (48,7 %). Aksincha og'ir sanoat tarmoqlari nisbatan sutis rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi. Tojikiston iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil qiladi. Milliy daromad yaratishda uning hissasi 25 % ga (2005 y.) teng. Respublika qishloq xo'jaligining asosini er fondi va ulardan foydalanish imkoniyatlardan iborat. Jami hududning 1/3 qismidangina qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Ekin maydonlari esa 827 ming ga ni tashkil qiladi. Haydaladigan erlarning aholi jon boshiga to'g'ri kelishga ko'ra Tojikiston Markaziy Osiyoda eng pats ko'rsatkichga ega, (0,14 ga).

Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Tojikiston respublikasidagi tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitlar asosida o'ziga xos transport tizimi shakllandi va

rivojlanmoqda. Barcha kontinental davlatlarda bo'lgani kabi bu respublikada ham quruqlikda xarakat qiladigan transport tarmoqlari, ayniqsa avtomobil transportining ahamiyati benihoya katta.

Avtomobil transporti jami yuk tashish ko'rsatkichiga ko'ra eng ommaviy transport tarmog'idir. Uning hissasiga yil davomida tashiladigan yuklarning 90 % to'g'ri keladi. Jami yuk aylanmasining esa uning hissasiga 48,6 % to'g'ri keladi. Respublika hududi tog'lardan iborat bo'lganligi uchun avtomobil transportining ahamiyati ichki, rayonlararo yuklarni tashishda ayniqsa katta. Hozirgi vaqtda jami avtomobil yo'llarining uzunligi 28 ming km ni (shundan 13 ming km asfal'tlangan) tashkil etadi. Asosiy magistsral avtomobil yo'llari: Dushanbe - Xo'jand, Dushanbe - Xorog, O'sh-Xorog, Dushanbe - Termiz, Dushanbe - Qo'rg'ontepa va boshqalar. Baland tog' yo'llarida avtomobillar qatnovi faqat mavsumiy hususiyatga ega. Temir yo'l transportining ahamiyati asosan tashqi va qisman ichki (SHimoliy va Janubiy Tojikiston o'rtasida) iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda muhimdir. Temir yo'llarining umumiy uzunligi 0,5 ming km dir. Shuning 1/3 qismiga yaqini SHimoliy va qolgan qismi Janubiy Tojikiston hududlariga to'g'ri keladi. Bu yo'llar: Xovos-Qo'qon oralig'ida 1896 yilda, Termiz - Dushanbe oralig'ida 1926 - 1929 yillarda, Termiz - Qo'rg'ontepa oralig'ida 1970 yillar boshlarida qurildi. Kelgusida Dushanbe-Fayzobod, Samarqand-Panjikent, Qo'rg'ontepa - Ko'lob temir yo'llari qurilishi ham ko'zda tutiladi.

Havo transporti respublikaning tog'li sharoitida alohida ahamiyatga ega. Chekka tog'li rayonlarni markaziy rayonlar bilan bog'lashda va tashqi aloqalarni tez va samarali tashkil qilishda bu transport tarmog'i katta o'rin tutadi. Boshqa transport tarmoqlari (daryo, quvur, elektron) ning roli yuk tashish va iqtisodiy aloqalarni tashkil qilishda ancha cheklangan.

MDH davlatlari orasida bu yunalish ko'rsatkichlari Tojikistonda o'ziga xosdir. Ittifoq davrida respublika jahonning 50 davlati bilan eksport - import aloqalariga ega edi. Asosan rangdor metal kontsentratlari, alyuminiy, paxta tolasi, ayrim xildagi gazlamalar, meva va sabzavot konservalari va boshqalar tashqi bozorga chiqarib kelingan. Mutsaqillik yillarida eksport mahsulotlari assortimenti u qadar o'zgarmagan bo'lsada, Tojikistondagi murakkab siyosiy - ijtimoiy vaziyat tufayli, tashqi iqtisodiy aloqalarda u qadar ijobiy o'zgarishlarga erishilmadi. Hozirgi vaqtda respublika tashqi aloqalarining mutloq katta qismi Rossiya Federatsiyasi, Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlarga to'g'ri kelmoqda.

7-mavzu Turkmaniston Respublikasi

1. reja Tabiiy sharoiti va boyliklari
2. Aholisi

Xo'jaligi va transporti

Turkmanitsoi respublikasining umumiy maydoni 488 ming km² bo'lib, bu ko'rsatkichga ko'ra u MDH da 4, O'rta Osiyoda 2 (O'rta Osiyoning 12,5 % hududini t.e.), jahonda esa 50 - o'rinda turadi. Aholisi 6,7 mln.kishi (2006 y)—bu ko'rsatkich bo'yicha MDH da 10 va Jahonda 106 - o'rinni egallaydi. U shimoli-g'arb tomonida Qozog'iston, shimol - sharqda O'zbekiston, janubida Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh, g'arbida uning hududlari Kaspiy dengizi bilan tutash.

Mintaqadoshlari Qirg'iziston, Tojikistondan farqli o'laroq uning chegaralari asosan tekisliklar orqali o'tadi. Faqat Eron davlati bilangina u qadar baland bo'lmagan, lekin seysmiklik darajasiga ko'ra "notinch" Kopetdog' orqali chegaralanadi. Shu sababli uning chegaralari iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra nisbatan qulay.

Shuning bilan birga barcha mintaqadosh davlatlari kabi uning dunyo okeani va dengizlari qirg'oqlaridan o'zoqda joylashganligi muhim tabiiy boyligi hisoblanadigan neft va gazini jahon bozoriga chiqarishda katta muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tabiiy sharoiti. Turkmaniston tabiiy sharoitining ko'rsatkichlari hududining ancha janubda joylashganligi va er yuzasining asosan tekisliklardan iborat ekanligi bilan bog'liq.

Rel'efining 80 % tekisliklar (Turon tekisligi) dan iborat. Chekka janubiy chegaralariga tutash uning asosiy tog' va balandliklari (Kopetdag, Paropamiz-Qorabel) hamda G'arbiy Kaspiy bo'yi pats tekisliklari yer yuzasini buzib turuvchi Katta va Kichik Balxon, Kopetdog' kabi kabi pats tog'lar va balandliklari umuman respublika hududining atiga 20 % ga yaqin qismini egallaydi.

Iqlimi respublikaning katta qismida keskin kontinental. Faqat hududining janubiy qismlarida (Murg'ob va Tajan vodiylari, Kopetdog' etaklari hamda Qizil Atrek daryosi quyi qismlari) u quruq subtropik xususiyatiga ega. Yanvar oyining o'rtacha t°si shimoliy rayonlarida - 5° dan janubida +3° - 4° gacha, iyulniki esa +28° dan (shimolda) 32° gacha (janubda) o'zgarib turadi. Respublikada mutloq minimum bilan maksimum esa - 32° bilan + 49,9° o'rtasada tebranadi. Umuman, Turkmaniston iqlimini o'ziga xos xususiyatlaridan biri Markaziy Osiyoda yillik o'rtacha t° ning eng yuqoriligidir. Shuning bilan birga uning iqlimi eng qurg'oqchil hamdir. Yog'in miqdori Kaspiy bo'yi pats tekisliklari va shimolidan janub va janubi-sharqidagi tog' va balandliklari tomon 100 mm dan 200 - 250 mm gacha ko'tarilib boradi. Bu holat Turkmanistonda suv manbalari naqadar qadrliligi ekanligini, suv bor joydagina hayot bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Respublika hududida uzoq tarixiy davrlardan boshlab aynan shu sababli aholi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan, suvdan foydalanishning eng murakkab usullari (kariz va qumli tekislikdagi nihoyatda chuqur quduqlar) dan foydalanish malakalarini o'zlashtirganlar. Hozirgacha Kopetdog' etaklari va Paropamiz balandliklari hududlarida o'nlab karizlar aholini suv bilan ta'minlashda xizmat qilmoqda. Turkmanistonni haqli ravishda quduqlar mamlakati deb ham atash mumkin. Uning hududida 10 mingdan ortiq quduqlar hisobga olingan. Agar bu quduqlarning aksariyati qum barxanlari orasida katta chuqurlikargacha kavlanganligini (200 m gacha chuqurlikda) hisobga olsak, unda suv uchun kurash hayot-mamot ahamiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Jahondagi eng uzun sun'iy sug'orish kanallaridan hisoblanadigai Katta Qoraqum kanali (uzunligi 900km) ham respublikada suv muommasini yengillatish maqsadida qurilgan.

Tabiiy resurslari. Tabiiy resurslar orasida eng ahamiyatlisi neft va gaz boyliklaridir. Ularning zahiralari ko'ra Turkmaniston MDH dagina emas, balki jahonda (ayniqsa tabiiy gaz bo'yicha) eng yirik davlatlar qatoridan o'rin oladi.


E'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra uning neft zaxiralari 12 mlrd t va gaz zahiralari esa 21 trln m³ ni tashkil qiladi. Neft konlari asosan G'arbiy Turkmaniston (Kaspiy bo'yi pats tekitsliklari) va gaz konlari Markaziy va Sharqiy Turkmaniston hududlarida tarqalgan. Datslabki neft konlari Nebitdag atroflarida inqilobdan oldin aniqlangan. Ularni o'zlashtirish esa asosan 30–yillardan boshlangan. Keyingi vaqtlarda neftning asosiy konlari Kaspiy bo'yining Cheleken ya.o. dan to Okarem-Gasanko'ligacha bo'lgan hududlarida hamda Kaspiy dengizi sayozliklarida joylashganligi aniqlandi. Tabiiy gaz konlarini aniqlash va o'zlashtirish esa 60–yillar ohirlaridan boshlandi. Datslab shimoliy Turkmanistonda (Naip, Gaz-Achak), so'ngra Mari atroflarida (May, Shotlik), so'nggi yillarda esa sharqiy Turkmanistonda (Sovetobod, Davlatobod) ko'shilib yirik tabiiy gaz konlari o'zlashtirildi.

Kimyoviy mineral resurslari (xilma - xil tuzlar, oltingugurt) iqtisodiy jihatdan respublikaning ikkinchi muhim yer otsi boyliklaridan hisoblanadi. Garchi tuz konlari respublikaning turli rayonlarida uchrasada, ularning asosiy zahiralari G'arbiy Turkmanistonda Qorabo'g'oz - Gol havzasida to'plangan. Uning zahiralari amalda bitmas-tuganmasdir. Bu havzada osh tuzi hamda murakkab tarkibga ega bo'lgan mirabilit tuzlari mavjud. Respublikaniig yana bir muhim kimyoviy mineral resursi Sharqiy Turkmanistondagi oltingugurt konlaridir. Ko'xitang tog'lari etakdaridagi Gaurdak oltingugurt koni MDH dagi eng yirik kondir. SHuningdek, bu hududa kaliy tuzi ham mavjud. Bular kelgusida Turkmanistonda xilma-xil kimyo sanoati tarmoqlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Respublikada rang-barang qurilish mineral boyliklari ham ko'pdir. Ular sement, oyna, ohak kabi tarmoqlarni rivojlantirishda foydalaniladi.

Ammo, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Turkmanistonda ko'mir, temir rudasi va xilma - xil rangdor metall konlarining sanoat ahamiyatiga molik so'nggi yillarigacha uchramagan.

Aholisi va mehnat resurslari. Turkmaniston respublikasi aholinnig umumiy soniga ko'ra Markaziy Osiyoda eng kichik respublikalardan biridir. Uning aholisi tadrijiy ko'rsatkichlari so'nggi deyarli bir asr davomida quyidagicha o'zgarib bordi (ming kishi hisobida):



Ko'rinib turibdiki, aholining soni jihatdan o'sish sur'atlari ayniqsa so'nggi yillarda ancha yuqori. Aniqroq takidlanadigan bo'lsa, u MDH davlatlari orasida

eng yuqori ko'rsatkichdir. Albatta bunday yuqori ko'rsatkichning asosiy omili aholi tabiiy o'sishining yuqoriligidir. 90 – yillar o'rtalarida har 1000 kishiga tug'ilish 33, o'lim 8, sof tabiiy o'sish esa 25 ko'rsatkichga to'g'ri keldi. Boshqacha aytganda, respublika aholisi faqat tabiiy o'sish hisobiga yiliga 3,5 % ko'paymoqda. Bu ko'rsatkichlar MDH va jahonning shunday ko'rsatkichlaridan ancha yuqori, faqat Afrika va ayrim arab hamda Janubiy Osiyo mamlakatlaridan birmuncha patsroqdir.

Aholining milliy tarkibiy ko'rsatkichlari (2005y) ham o'ziga xosdir. Respublika umumiy aholisining 81 % dan ko'prog'ini turkmanlar, 9,2 % ni o'zbeklar, 2,3 % ni ruslar, 2 % ni qozoqlar, 5,5 % ni boshqa millat vakillari tashkil qiladi.

Aholining o'rtacha zichligi har 1 km² maydonga 14 kishiga to'g'ri keladi. Viloyatlari orasidagi o'rtacha zichlik Tashxovuz va Marida eng yuqori (1 km² ga 11 – 12 kishi).

Respublika shahar aholisining salmog'i 45 % ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichga ko'ra u Markaziy Osiyoda faqat Qozog'istondan keyin turadi. Eng yirik shahri respublikaning poytaxti Ashgabad bo'lib, unda yarim milliondan ziyod aholi yashaydi.

Xo'jaligi. Turkmaniston xo'jaligi agrar-industrial yo'nalishiga ega. Sobiq Ittifoq tarkibida u avvalo tabiiy gaz va neft, paxta va boshqa qimmatli qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtiruvchi respublika sifatida ixtisoslashgan edi, U sobiq ittifoqning 1% neft mahsulotlari, 10% dan ortiq tabiiy gazi, 16 % gacha paxta tolasini etkazib bergan, uning xalq xo'jaligi va aholi itse'mol mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi esa ancha pats bo'lgan. Shu sababli, mutsaqillik yillarida faqat xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashgan respublika niqtisodiyoti tarkibini sog'lomlashtirish, ko'proq itse'molga tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga moslash bo'yicha ma'lum choralar ko'rilmogda. Jumladan, respublikaning asosiy boyligi hisoblanadigan neft va gazni jahon bozoriga chiqarish yo'llarini izlash, bu mineral boyliklarni qazib chiqarish va qayta ishlashni samarali yo'lga qo'yish bo'yicha qat'iy harakatlar olib borilmogda.

Sanoati. Sanoat mahsuloti hajmiga ko'ra Markaziy Osiyo respublikalari orasida eng suts rivojlangan: 90 - yillar o'rtalarida uning respublika milliy daromadini yaratishdagi hissasi 11–12 % ni tashkil qilgan. Shundan kelib chiqqan holda Turkmaniston sanoatining tarkibiy hususiyatlari ham o'zgacha. Uning sanoatini boshqa Markaziy Osiyo davlatlaridan farqli ularoq bir tarmoqli xo'jalik deyish ham mumkin. Tsatitsik ma'lumotlar shunday deyishga asos beradi. Jumladan, birgina yoqilg'i–energetika majmui sanoat mahsulotlarining 67% dan ko'prog'ini bergan holda boshqa barcha og'ir sanoat tarmoqlari birgalikda 9 % dan kam mahsulot ishlab chiqara olgan. Ulardan ayniqsa metallurgiya (0,1%) va yog'ochni qayta ishlash, tsellyuloza–qog'oz sanoati (0,3%) hissalarini nihoyatda patsdir. Hatto yengil sanoat, oziq - ovqat tarmoqlari hissasi ham nisbatan pats bo'lgan. Ular shu davrda 24 % sanoat mahsulotlarini yetkazib bergan.

Qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligi–Turkmaniston respublikasi iqtisodiyotida jami milliy daromadni yaratishda eng katta o'rin tutadi. 90- yillar

o'ralarida bu borada uning xissasi sal kam 48% ni tashkil qilgan. Bu holat hozirgi vaqtda ham o'z kuchida qolmoqda.

Qishloq xo'jaligining asosini albatta, yer-suv fondi tashkil etadi. Turkmanistonda bir tomondan yer fondiniig ancha kattaligi, nkinchi tomondan esa suv ta'minotiniig murakkabliga ana shu resurslardan foydalanishda o'ziga xos imkoniyatlarni keltirib chiqargan. Masalan, shu sabablarga ko'ra respublikaning datslabki mutsaqillik kunlaridan boshlab xususiy foydalanish uchun to 50 gektargacha erga egalik qilishga ruhsat etilgan.

Respublikada jami haydaladigan yerlar 1,5 mln ga ni yoki u jami maydonining 3,6% ni tashkil qiladi. (Markaziy Osiyoda eng pats ko'rsatkich). Shunga qaramasdan qishloq xo'jaligining asosiy sohasi dehqonchilikdir.

Dehqonchilikning eng yirik tarmog'i paxtachilik bo'lib, jami ekin maydonlarining 45% ni band qiladi Markaziy Osiyoda eng katta ko'rsatkich), uning asosiy maydonlari Amudaryoning o'rta va quyi hududlari va Murg'ob-Tajan vohasida joylashgan. Turkmaniston so'ngi yillarda 700 ming tonna paxta hosilini bermoqda.

Mutsaqillik yillarida dehqonchilikka katta e'tibor berila boshlandi. O'zbekistonga o'xshash unda ham «don mutsaqilligi» ni ta'minlash bo'yicha qizg'in kurash ketmoqda. Donli maydonlar hozirgi vaqtda jami ekin maydonlarining 35% ni tashkil qilmoqda. Asosiy sug'oriladigan maydonlarda bug'doy, arpa, makkajo'xori, qisman sholi ekiladi.

Sabzavot, kartoshka va poliz ekinlarni jami ekin maydonlarining 2,5 % ga yaqiniga ekilmoqda, Qolgan maydonlarda (17 %) em - xashak ekinlari ekiladi. Chorvachilik asosan qurg'oqchil cho'l yaylovlaridan foydalanish asosida shakllangan. Respublikada 1,1 mln bosh qoramol, 6,3 mln qo'y va echkilar, 22 ming bosh yilqilar tsatitsik hisobida qayt etilgan. Shuningdek, pillachilik, hovuz baliqchiligi, parrandachilik, tuyachilik ham respublika iqtisodiyotida katta e'tiborga molikdir.

Transporti. Transportida eng ahamiyatli tarmoqlardan biri temir yo'l transporti bo'lib, datslabki yillar Krasnovodskdan XIX asr 80-yillarda Samarqandgacha o'tkazilgan Urushdan oldingi yillarda Mari - Kushka, urushdan keyin esa Chorjo'y-Qung'irot yo'llari qurildi. Bu yo'l 70-yillar o'rtalarida Qozog'istonning Beynovigacha olib borildi va Turkmaniston eng qisqa masofada sobiq ittifoqning markaziy rayonlarigacha chiqish imkoniga ega bo'ldi. YAqinda Turkmanistonda respublikaning shimolini janub bilan tutashtiruvchi (o'zunligi 540km) Transqoraqum temiryo'li Ashgabad-Qoraqum-Doshhovuz foydalanishga topshirildi. Shu temiryo'l bo'ylab avtomobil yo'li qurilmoqda. Hozirgi vaqtda temir yo'llar uzunligi 2,15 ming km ni tashkil qiladi.

Avtomobil transporti avvalo murakkab qurg'oqchil tabiiy sharoiti tufayli nisbatan sutsi rivojlangan edi. Umumiy foydalanishdagi avtomobil' yo'llari uzunligi 13,6 ming km, jumladan, qattiq qoplamali yo'llar uzunligi 11,6 ming km. Umumiy yuk aylanmasida uning salmog'i atigi 2,7% ni tashkil etadi. (Markaziy Osiyo respublikalarida eng pats ko'rsatkich). Hozirgida mamlakatda yangi yo'nalishda qurishda va mavjud yullarni rekonsruksiya qilishga "Turkman

avtomobil yo'llari" davlat kontserni tomonidan muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, chet ellik xamkorlar bilan birgalikda Ashxobod-Turkmanboshi (585 km) rekonsruktsiya qilin-moqda, Qoraqum cho'li orqali Ashxobod-Qoraqum-Toshhovuz (540 km), Ashxobod-Mari-Turkmanobod (600 km) avtomobil yo'lilari qurilmoqda. Shuningdek uzoq bo'lmagan masofalardagi Geoktepa-Baxarden, Baxarden-Bami, Bolxonobod-Serdar, Atamurat-Imamnazar avtomobil yo'lilari qurilmoqda. "Turkman avtomobil yo'llari" davlat kontserni ishchilari jahonga mashhur "Katerpillar", "Komatsu", "MAZ", "KamAZ" firmalari tomonidan ishlab chiqarilgan yo'l qurulish texnikalariga ega bo'ldi.

Turkmanistonda umumiy yuk aylanmasiga ko'ra eng yirik tarmoq quvur transporti bo'lib, bunda uning hissasi 80 % dan ortiqdir. Neft va gaz quvurlari, jumladan, Vishka-Turkmanboshi, Cheleken-Turkmanboshi neft quvurlari mavjud. Pokiston poytaxti Islomobodda "Transavg'on" gaz quvur yo'lini barpo etish bo'yicha muzokaralari olib borilmoqda.

Dengiz transporti Kaspiy havzasidagina ahamiyatli bo'lib, respublika yuk aylanmasida uning xisasi 1,0 % ga to'g'ri keladi. Asosiy dengiz porti—Turkmanboshi. Turkmanboshi—Boku, Bekdash—Boku yo'nalishi bo'yicha temir yo'lli dengiz paromi mavjud. Amudaryo va Qoraqum kanalida ham kema qatnaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalar—tobora rivojlanib va mutsaqillanib bormoqda. Uning asosiy hamkorlari bo'lib tobora jahonning rivojlangan va qo'shni mamlakatlari maydonga chiqmoqda. Eksportga paxta tolasi, gaz, neft va neft mahsulotlari, elektr energiyasi, ayrim kimyo sanoati mahsulotlari ko'proq chiqarilmoqda. Importi esa xilma - xil mashina va uskunalar, texnologiya vositalari, metall, qog'oz, aholi itse'mol mahsulotlaridan iborat.

Savollar

- Turkmaniston respublikasi tashqil topish bosqichlari.
- Respublikaning iqtisodiy geografik urni.
- Respublika bilan chegaradosh davlatlar.
- Respublikaning jaxon siyosiy xaritasida tutgan urni.
- Respublikaning O'rta Osiyoxaritasida tutgan urni.
- Sanoat tarmoqlari.
- Qishloq xujaligi tarmoqlari.
- Transport.
- Mamlaqatning agrar-indutsrial xaraqterga ega eqanligi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: «O'zbekiston» 1995.
2. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqaror-lik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston». 1997.
3. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: «O'zbekiston». 1999.
4. Akramov Z.M., Musaev P.G., O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 8-sinf. T.: "O'qituvchi". 2000.
5. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarova I., O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasm. T.: "O'qituvchi" 1994.
6. Alimov R.M. Arifxonov Sh.R. i dr. T Sentral'naya Aziya: geoekonomika, geopolitika, bezopasnost'. T.: "SHarq" 2002.
7. Amanov M., Abduraxmonov A. O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, Qoraqalpog'iston. T., 1995.
8. Aliev M.T. Ochilov M.F., Xachiev G.A. Ekonomika Uzbekistana i tsran SNG. T.: "Fan" 1996.
9. Axmetov. E.A. va boshqalar. Qozog'istonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 9 - sinf. "Maktab" 2005.
10. Ahmedov. A., Saydaminov. Z. O'zbekiston Respublikasi. (qisqacha ma'lumot-noma) "O'zbekiston" 2006.
11. Boltaev M.J. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T. 2003.
12. Jumaboev T.J. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. Samarqand, 2001.
13. Parдаev G'.R. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Ma'ruza matni Angren, 2003.
14. Parдаev G'.R. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi (seminar mashg'ulotlar) Angren, 2003.
15. Parдаev. G'.R. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi Angren, 2003.
16. Ro'ziev A. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Termiz-2000.
17. Safarov. E. O'rta Osiyova Qozog'iston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. T.: 2000.
18. Turkitsan nash obshiy dom (problema ekologii i okrujayushey sredy T Sentral'no Aziatskogo regiona). 1995.
19. To'xliev N., va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" T.: 2006.
20. To'xliev N., va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" T. 2006.
21. To'xliev N., O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 1998.
22. Qayumov. A.A., Umarov S.S., Azimov SH.A., va boshqalar. Iqtisodiy geografiya Ma'ruzalar matni. T.: 2001.

23. Qayumov A., Safarov E., Tillaboeva M. Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi . 9-sinf. T.: “O‘zbekiston”2006
24. G‘ulomov P., Vahobov X., Hasanov A., Turkiston tabiiy geografiyasi. 7-sinf T.: “O‘qituvchi” 1997.
25. G‘ulomov P., Vahobov X., Hasanov A. O‘rta Osiyotabiiy geografiyasi. 7- sinf. T.: “Mehnat” 2001.
26. Xasanov I.A., G‘ulomov P.N. O‘rta Osiyotabiiy geografiyasi . T.: 2002.
27. Usikov.V.V. va boshqalar. Qozog‘istonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 9 - sinf. “Atamura” 2005.
28. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 8-10-11 sonlar. T.2006.
29. Internet ma’lumotlari.